

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHkamASI hUZURIDAGI  
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI

N.Botirova

Islom iqtisodiyotida qarz masalalari

ma'ruza matni

**5341100 — Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosa —  
batlar *yo'nalishi uchun***

Toshkent - 2010

## **1-mavzu: Islom iqtisodiyotida qarz masalalari**

### **Reja:**

1. Islom iqtisodiyotida qarzning ta'rifi va uning mazmun-mohiyati.
2. Qarz munosabatlarida uchraydigan shartlar.
3. Qarz munosabatlarida muddat va joy masalalari.
4. Qarzga oid shar'iy hukmlar.

### **1. Islom iqtisodiyotida qarzning ta'rifi va uning mazmun-mohiyati**

Islom iqtisodiyotida boshqa iqtisodiy tizimlardan farqli o'laroq, kishilarning ijtimoiy himoyasiga asosiy e'tibor qaratiladi. Ushbu faoliyatlardan biri qarz munosabatlaridir. Islom moliya muassasalari o'z mijozlarining ijtimoiy holatini ham hisobga oladi. Masalan, islom iqtisodiyotida kredit, ya'ni foizga qarz berish qat'iyan taqiqlanadi, zamonaviy moliya muassasalarida esa bu faoliyat asosiy va qat'iy daromad olish manbai hisoblanadi. «qarz» iborasi diniy adabiyotlarda Alloh rizosini tilagan holda muhtojlarga hech bir evazsiz va qaytarib berish sharti bilan qilinadigan yordamdir, deb e'tirof etiladi.

PayHambarimiz (s.a.v.) berilgan har bir sadaqaning o'n barobari, yaxshi niyat bilan berilgan qarzga esa o'n sakkiz barobar savob berilishini aytganlar (Ibn Moja rivoyati, sadaqa bobi 19-hadis). Shuningdek, qiyin ahvolda qolgan kishiga qarz bergan musulmonga qarzi o'ziga qaytib kelingunga qadar har kuni savob yozilishini Alloh Taolo va'da qilgan (ibn Moja rivoyat qilgan, sadaqa bobi 4-hadis).

Arab tilida qarz so'zi «dayn» yoki «qarz» deb ishlatilib, qarz bermoq, qarz olmoq fe'lidan yasalgan:

Umumiy ma'noga ko'ra, qarz munosabatlari savdo-sotiq munosabatlariga o'xshaydi. qarz bu muayyan narsani aynan shu miqdorda qaytarib berishlik sharti bilan ikkinchi shaxs tasarrufiga berishdir.

LuHaviy ma'noga ko'ra, qarz «bo'lak»dir, ya'ni berilgan qarz uni beruvchi kishiga tegishli mol-mulkning bir qismidir.

Istilohiy ma'noga ko'ra, qarz – bu ma'lum bir mol-mulkni xuddi shu miqdorda (ko'rinishda) qaytarib berish sharti bilan o'zga bir shaxsga topshirishdir. Xanafiy mazhabi ta'rifiga ko'ra, qarz – maxsus bir kelishuvki, unda bir shaxsning boshqa bir shaxsga xuddi shu miqdorda qaytarish talabi bilan muayyan mol-mulkni berishdir.

### **2. qarz munosabatlarida uchraydigan shartlar**

a) qarzning qarz bo'lish shartlari:

qarz qarz bo'lishi uchun, avvalo, olingan mablag' sarf etilgandagina qarz bo'ladi (ma'lum miqdorda mol-mulk olinib, u ishlatilmasa, u qarz bo'lmaydi), ya'ni qarzning legal bo'lishi savdo-sotiqda bo'lgani kabi olingan mablag' tasarruf eta olinadigan darajada bo'lishi kerak.

qarzda ijob va qabul, ya'ni «men uni oldim» va «men uni berdim» degan lafz aytilishi kerak.

qarzga beriladigan mol-mulk miqdori til bilan aytilishi shart, ya'ni «xuddi shu qiymat (miqdor) da qaytarilishi bilan men sizga falon miqdor mol-mulkni tasarrufingizga o'tkazdim» deyilishi lozim.

b) qarzga beriladigan mol-mulk sharti:

Abu hanifa va Imom Muhammad fikriga ko'ra, qarzga beriladigan mol-mulk qarzga berishga yaroqli va qiymatga ega bo'lishi lozim. Muhimi, u qarz olgan insonga naf'i tegishi kerak.

v) qarz munosabatlarining to'g'ri bo'lish shartlari:

qarzda ijob va qabul bo'lish sharti, ya'ni «men qarz berdim», «men qarz deb qabul qildim» so'zlari bilan ifodalanishi zarur.

qarz shartnomasini tuzishda qarz beruvchi ham, qarz oluvchi ham ushbu shartnomani tuzishga layoqatli shaxs bo'lishi, ya'ni baloHatga etgan va aqli-xushi joyida bo'lishi kerak.

qarzga beriladigan mol-mulk muqobillik qobiliyatiga ega bo'lmoHi lozim (hanafiy mazhabi bo'yicha).

qarzga beriladigan mol ma'lum oHirlik, uzunlik, donabay kabi o'lchovlarga ega bo'lishi shart. Shu bilan birga mol muayyan tur, jinsda bo'lishi kerak (ya'ni arpa bilan aralashgan buHdoy kabi bo'lmasligi lozim). Aks holda mol qaytarilish choHida nizoga sabab bo'ladi.

g) qarzni hujjatlashtirishdagi shartlar:

qarzni ro'yxat (qoHoz)ga qayd etish;

Ikki erkak (yoki bir erkak va ikki ayol) guvoh bo'lishi;

Adolatli kotib;

Kafolat bo'lishi;

Berilgan qarz miqdorida garov bo'lishi.

qarz munosabatlarida qarzni qaytarishda ortiHi bilan qaytarish, qarzni uzishda qarz bergan tomonlarga (qarzdin tashqari) biror bir hadya (sovh) in'om etish yoki qarz olishda qarzdor tomon yaroqli molni qarzga olib, qaytarishda esa yaroqsiz molni qaytarishi kabi qo'yilgan shartlar botil shartlar hisoblanadi.

hanafiy mazhabi ulamolari fikriga ko'ra qanday bo'lishdan qat'iy nazar qarz berishda biror bir manfaat ko'zlanishi (qarz shartnomasida ushbu manfaat qayd qilinganda) haromdir. Agarda qarz shartnomasida ushbu manfaat shart sifatida kelishilmasa, unda qarz berishda biror-bir manfaat ko'zlash mumkin.

qarzni qaytarish paytda qarzdor tomon qarzga qo'yib qarz bergan tomonga hadya in'om etishi lozimligini qarz shartnomasida ushbu shartnomaning shartlaridan biri sifatida kiritilsa, u holda haromdir.

### **3. qarz munosabatlarida muddat va joy masalalari**

Belgilangan muddatda qarz beruvchi tomon berilgan miqdordagi mablag'ni (qarzni) talab qilish huquqiga ega, chunki qarz –bu shartnoma, kelishuv bo'lib, berilgan mol-mulk o'z egasiga qaytarilishi lozim. Shuning uchun qarz to'liHicha muddati kelishi bilan darhol qaytarilishi lozim, chunki belgilangan muddat ortga yoki oldinga surilishi bilan qarz miqdori o'zgarib qolmaydi. Ma'lum muddatga berilgan qarz uning muddati tugamasdan talab qilinishi ham mumkin emas.

Lekin qo'yidagi 4 holatda, hanafiy mazhabiga ko'ra, qarz muddatini oldinga yoki orqaga surish mumkin:

1) Vasiyatda, ya'ni bir kishi boshqa bir kishiga 1 yilgacha ma'lum mablag' qarz berganini vorislariga vasiyat qilgan bo'lsa, o'sha belgilangan muddat kelmay turib vorislarning qarzni talab qilishga haqqi yo'q.

2) Inkorda, qarz olganlik inkor etilganda; qarz beruvchi tomon muddatdan oldin qarzni talab qilishga haqli.

3) qarz hukmiga ko'ra, ya'ni qozi qarzni to'lashni hukm qilganda muddatdan oldin (yoki keyin) qarz qaytarilishi lozim.

4) Mablag'ni boshqa kishiga bermoqchi bo'lganda, ya'ni qarz beruvchi tomon qarzdor tomondagi mablag'ni boshqa kishiga ko'chirmoqchi bo'lganda, qarz beruvchi tomon qarz muddatini oldin (yoki keyin)ga surishga haqli.

qarzni uzish joyi masalasi bo'yicha to'rtala mazhab ulamolarining fikri bir xil: «qarz – qarz berilgan joydagina uzilishi lozim».

Agar yo'lda xavf-xatar bo'lmasa, mol-mulkni olib yurish va saqlashga ehtiyoj bo'lmaganda qarz bergan tomon qarzni boshqa barcha joyda qabul qilib olishi mumkin, aks holda qarz beruvchi tomon qarzni bergan joyidan boshqa joyda qabul qilib olmasligi lozim.

### **4. qarzga oid shar'iy hukmlar**

qarz qur'oni karim, sunnat va ijmo'ga ko'ra joizdir.

qur'oni karimning Baqara surasi 282 va 283 oyatlarida qarz masalasi bo'yicha hukmlar nozil etilgan. Ularda qarz shartnomasi tuzilganda uni yozib qo'yish, ikki erkak (yoki bir erkak va ikki ayol) kishi guvoh bo'lishi, qarz katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar muddatigacha yozib qo'yish lozimligi bayon etilgan. Shu bilan birga kotib yozishdan bosh tortmasligi, adolat bilan yozishligi, guvohlarning ishonchli bo'lishliklari, qarzni qarz olayotgan kishi aytib turishi, agar bunga qodir bo'lmasa, adolatli vakil yordam berishi zarurligi qayd etilgan.

hadisdan dalillar:

PayHambar (s.a.v) dedilar: «Musulmon kishining qarz berishi sadaqa qilganidan yaxshidir».

Anas (r.a.) rivoyatiga ko'ra, PayHambarimiz s.a.v. dedilar: «Meroj kechasi men jannat eshigida qo'yidagi yozuvni ko'rdim: «bir sadaqa – o'n sadaqa savobi)ga teng, bir qarz esa o'n sakkiz barobar qarz berganning (savobi)ga teng. Shunda men: «Ey, Jabroil, qarzning sadaqadan afzalligi nimadaq» - deb so'radim. U: «Tilamchi (gadoy) tilamchiligi (kasbi shu bo'lganligi) uchun so'raydi, qarz so'rovchi esa biror-bir hojat yuzasidan qarz so'raydi», - dedi.

Islom olami faqihlari tomonidan qarz munosabatlarining shar'iy ekanligi ijmo' qilingan.

Sahobalardan Abu Dardo (r. a.) aytadilar: «Ikki dinor qarz berib turib, qaytarilgach, yana uni qarzga berishlik men uchun o'sha 2 dinorni sadaqa qilib yuborishdan afzal». Ibn Mas'ud (r. a.) esa: «Bir marta sadaqa berishdan ko'ra ikki marta qarz berish afzal» deganlar.

### **Tayanch tushunchalar:**

qarzning mazmuni, qarzning qarz bo'lish shartlari, qarzga beriladigan mol-mulk shartlari, qarzni hujjatlashtirish shartlari, qarz munosabatlarida muddat, qarz munosabatlarida joy masalasi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Qarz tushunchasi va uni mohiyati deganda nimani tushunasiz.
2. Islomda qarz munosabatlariga oid shar'iy hukmlardan misol keltiring.
3. Qarz berish va olish shartlarida islom iqtisodiyoti va zamonaviy iqtisodiyot o'rtasidagi farqlar nimalardan iborat.
4. Islom va bozor iqtisodiyotidagi qarz munosabatlaridagi o'xshashliklarni ko'rsating.

5. Islomda qarz munosabatlari ijtimoiy himoyaning bir ko'inishi degan iborani izohlang.

### **O'zbek tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. «qur'oni karim» ma'nolarining tarjimasi va tafsiri. – T., 2004.
2. Ahmadjon Bobomurod «Faroiz ilmi» Mavrounnahr nashriyoti T-2005 yil
3. «Muxtasar» Toshkent, Cho'lpon nashriyoti, Toshkent-1994 yil.
4. «Islomda ijara va muzoraba», Mavrounnahr nashriyoti Toshkent-2005
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf «hadis va hayot»
6. Nodir Nabijon o'Hli «halol tijorat sirlari» Mavrounnahr nashriyoti
7. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Savdo, ziroat va vaqf”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Faroiz va vasiyatlar”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
9. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Zakot”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil

### **Arab tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.«Mu'malatul bunuk va ahkamuhul shar'iyya» qohira – 2001 yil
- 2.Vahba Zuxayliy «Al-Fiqhul islamiy va adillatuh»
- 3.Tafsirul jalolayn. qoxira,-1999 yil.
- 4.Ali ibn Muxammad Sulton al-Ma'ruf bil qori «An-niqoya muxtasar ul-viqoya», qozon, 1998
- 5.Burxoniddin MarHiloniy «Xidoya», Mustafoid nashriyoti
- 6.Shayx Axmad Mullajiyvan ibn Abu Sa'id ibn Ubaydullox «Nurul anvor», Yusufiy nashriyoti. 1319
- 7.Maxmud ibn Axmad al-Ayniy «Al-binoya fi sharxil qidoya», Bayrut.
- 8.Muxammad Okif «At-tasxiluz-zaruriy li masailil quduriiy», Madina,-1994
- 9.Abduraxmon ibn Muxammad «Al-fiqx ala mazoxibil arba'», qoxira,-1997
- 10.«Mu'malatul bunuk va axkamuxal shar'iyya» qoxira, – 2001 yil

### **Ingliz tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Chapra, M. Umer (1985), Towards A Just Monetary System, Leicester, UK: The Islamic Foundation. (1992), Islam and the Economic Challenge, Leicester, UK: The Islamic Foundation.
1. Saleh, Nabil (1992), Unlawful Gains and Legitimate Profits in Islamic Law, UK: Graham & Trotman, pp. 63-64.
2. Shefrin, H. and M. Statman (1998), Ethics, Fairness, Efficiency, and Financial Markets, Virginia: The Research Foundation of Institute of Chartered Financial Analysts.
3. Wilson, R. (1985), Islamic Business: Theory and Practice, London: The Economist Publications. Articles

**Internet sahifalari:**

1. [www.islam.ru](http://www.islam.ru)
2. [www.IDB.com](http://www.IDB.com)
3. [www.COIER.com](http://www.COIER.com)
4. [www.KAAL.com](http://www.KAAL.com)
5. [www.IERC.com](http://www.IERC.com)

## 2-mavzu. Islom iqtisodiyotida zakot masalalari

### Reja:

1. Zakot tushunchasi va uning mohiyati.
2. Moliyaviy mablag'lar va chorva mollaridan zakot berish shartlari.
3. Zakot beruvchilarning tarkibi va xususiyatlari.
4. Zakotning ijtimoiy ahamiyati.

**1. Zakot-bu besh islom arkonlaridan biri bo'lib, luHaviy ma'nosi poklanishdir.** U diniy ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki muhim ijtimoiy ahamiyatga ham molikdir. Alloh taoloning muqaddas kitobi bo'lmish qur'oni karimning 82 oyatida zakot namoz bilan yonma-yon zikr qilingan.

Zakot mohiyatini to'laroq ifodalash uchun quyidagicha ta'rif berish mumkin: Zakot – bu badavlat musulmonlar mol-mulki, boyliklaridan faqiru miskinlarga berilishi shart bo'lgan haqdir. Islom ta'limotiga binoan sadaqa, ya'ni hayr-ehson ikki xil bo'ladi: ihtiyoriy va majburiy. Zakot esa berilishi shart bo'lgan majburiy sadaqadir. Zakot sadaqa bo'lib qolmasdan, balki ibodat hamdir. Ibodatni tark etishga baloHatga etgan musulmonning haqqi bo'lmaganidek, zakot bermaslikka molu dunyosi ma'lum miqdorga etgan musulmonning ham haqqi yo'qdir. Zakot inson jamHargan boyliklarning sadaqasi va ularni baloyu ofatlardan saqlaydigan bir himoyadir.

Zakot haqida Alloh Taolo tamonidan ko'p oyatlar nozil qilingan. Shulardan ayrimlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

«Namozni ado etinglar va zakotni beringlar va payHambarlarga itoat etinglar. Shoyad maHfirat qilinsangiz» (Nur-56).

«Sadaqalar – xayri ehsonlar faqirlar, miskinlar, sadaqa jamlash yo'lida xizmat qiluvchilar, dinga jalb qilish uchun xayrli ishlar qiladiganlarga, qul ozod qilishga, qarzdorlarga, Alloh yo'liga va musofirlarga atab Alloh tomonidan farz qilingan. Alloh biluvchi va donishmand zotdir» (Tavba-60).

Zakot haqidagi ba'zi hadislardan namunalar:

Termiziy Abu Kabshadan rivoyat qoilib, payHambarimiz (s.a.v.) shunday deganlarini naql qiladilar: «Uch muhim narsa haqida so'zlayapman uni xotiralaringizda saqlanglar:

Sadaqa bergan bilan mulu-dunyo kamayib qolmas.

Bir banda zulm ko'rgan bo'lsa va sabr qilsa, Alloh uning izzat va hurmatini ziyoda qiladi.



Biror banda tilanchilik eshigini ochsa, Alloh kambaHallik eshigini ochib yuboradi».

Zakotni farz ekanligini inkor qilgan kishi islom dinidan chiqadi. Ammo uning farz ekanligini e'tirof qilsa-yu, lekin amalda bajarmasa, gunohkor bo'ladi.

Islomda zakotning qo'yidagi shartlari mavjud bo'lib, zakot beruvchi shaxs: baloHat yoshiga etgan va aqlu xushi joyida bo'lishi;

musulmon bo'lishi;

hur va ozod kishi bo'lishi;

nisob miqdoriga etgan jamHarma mol-dunyoga ega bo'lishi lozim.

Nisob – zakot berilishi shart bo'lgan mollarning o'lchov miqdoridir.

a) nisob miqdoriga etgan mol-dunyo uning egasining kundalik va asliy ehtiyojlaridan ortiq bo'lsa;

b) nisob miqdoriga etgan mol-dunyo egasining shaxsiy mulki bo'lsa;

v) nisob miqdoriga etgan mol-dunyo bir yil, ya'ni 12 oy ichida biror marta kamaymagan bo'lishi kerak.

Nisob miqdori mollarning turiga qarab turlicha bo'ladi.

## **2. Moliyaviy mablag'lar va chorva mollaridan zakot berish shartlari**

qo'yidagi mollardan zakot berish lozim:

tilla, kumush, qog'oz pullar;

savdo mollari;

chorva mollari;

erdan olingan ijara puli;

mevali daraxtlarning hosili;

er osti boyliklari va xazinalari.

Tillaning nisobi 20 misqol. Demak 20 misqol tillasi bor musulmon uning qirqdan birini, ya'ni yarim misqolini zakot uchun berishi shart. Bir misqol tilla 4.8 grammga tengdir.

Kumushning 200 dirhamga etib, bunga bir yil o'tsa, undan besh dirham zakot berishi vojibdir.

Sotish maqsadida ishlab chiqariladigan barcha mollardan zakot berish vojibdir. Tijorat mollarining nisobga etganligini kumush yoki oltin nisobi miqdorida o'lchanadi.

O'zbekistonda zakot miqdori belgilanayotganda 20 misqol tilla, ya'ni 85 garmm tilla nisob miqdori hisoblanadi. Shundan 2.5 gramm tilla berilishi kerak bo'ladi.

2005 yilda O'zbekiston musulmonlari Diniy idora tomonidan zakot berish hisoblab chiqilgan. Nisob miqdori 780 ming bo'lib, shudan 19500 so'm zakot ajratiladi.

Tuyaning nisobi va undan beriladigan zakot miqdori

Tuyaninig soni

Zakot

|        |                 |
|--------|-----------------|
| 0-4    | -               |
| 5-9    | 1 qo'y          |
| 10-14  | 2 qo'y          |
| 15-19  | 3 qo'y          |
| 20-24  | 4 qo'y          |
| 25-35  | 2 yoshli tuya   |
| 36-45  | 3 yoshli tuya   |
| 46-60  | 4 yoshli tuya   |
| 61-75  | 5 yoshli tuya   |
| 76-90  | 3 yoshli 2 tuya |
| 91-120 | 4 yoshli 2 tuya |

Sigirning nisobi va undan zakot

Sigirning soni

Zakot

|         |                                  |
|---------|----------------------------------|
| 0-29    |                                  |
| 30-39   | 1 yoshli sigir                   |
| 40-59   | 2 yoshli sigir                   |
| 60-69   | 1 yoshli 2 sigir                 |
| 70-79   | 1 yoshli sigir, 2 yoshli sigir   |
| 80-89   | 2 yoshli 2 sigir                 |
| 90-99   | 1 yoshli 3 sigir                 |
| 100-109 | 1 yoshli 2 sigir, 2 yoshli sigir |
| 110-119 | 1 yoshli sigir, 2 yoshli 2 sigir |

qo'yning nisobi va undan beriladigan zakot miqdori

qo'yning soni

Zakot

|         |        |
|---------|--------|
| 0-39    | -      |
| 40-120  | 1 qo'y |
| 121-200 | 2 qo'y |
| 201-300 | 3 qo'y |

### **3. Zakot beruvchilarning tarkibi va xususiyatlari**

Yuqorida zikr etilgan tavba surasining 60 oyatida 8 toifadagi odamlarga zakot berilishi kerak deyilgan. Lekin bugunga kelib, «ko'ngillari islomga oshna qiluvchi kishilar» bundan chiqarilgan, ularga zakot berilmaydi. Chunki, Alloh Taolo islom dinini quvvatli qilib, bunday kishilarga ehtiyoj qolmadi va bunga barcha olimlar ijmo' qilganlar.

Shunday qilib, zakot olishga munosib toifa odamlar quyidagilardir:

Faqirlar. Kundalik ehtiyojini qoplashga qurbi etadigan, lekin zakot hisobiga erishmagan kishilar.

Miskinlar. Faqirlardan ham kambaHal, hech narsasi yo'q kishilar. Faqir va miskinlar zakot olishga eng loyiq kishilardir.

Sadaqa jam qiluvchlar. Zakot yilida va tarqatishda faol ishtirok etuvchilar. Ularga xizmatlariga yarasha zakotdan ma'lum miqdori ajratib beriladi.

Dinga jalb qilish va dillarni yumshatish maqsad qilingan kufr ahli. Ularga ehtiyoj qolmaganligi uchun, bunday toifa kishilarga zakot ajratilmaslikka butun islom ulomolari ijmo'-ittifoq qilishgan.

qullarni ozod qilish yo'lida. qullarni qullikdan ozod qilish yo'lida zakot sarf qilinadi.

qarzdorlarni qarzdan qutqarish yo'lida. Ular yahshi niyat bilan qarz olganlaru, lekin ba'zi bir uzrli sabablarga ko'ra, qarzdan qutilishning hech bir ilojini topmagan kishilardir.

Musofirlar. Ular safar jarayonida pul va mollarini yo'qotib qo'ygan, pullari etib kelguncha och qoladigan yoki uylariga etib olish uchun mablag'ga ega bo'lmagan kishilardir.

Alloh yo'lida. Uning zamirida Allohning roziligini topish uchun qilinadigan barcha xayrli ishlar mujassamdir. Masjidu madrasalar solish, tolibi ilmlarga ta'lim berish, ilm izlash, ariqlar qazishu, ko'priklar qurish, vatanni himoya qilish, uni obod qilish shular jumlasidandir.

Islomda zakot berilmaydigan shaxslar ham belgilab qo'yilgan bo'lib, ular zimmiylardir. Zimmiylar mumulmonlar orasida yashab, ularning joni, moli, ahli ayollari omonlikda bo'ladigan Hayridinlardir.

#### **4. Zakotning ijtimoiy axamiyati**

Zakot insoniyat uchun ko'pgina moddiy va ma'naviy manfaat keltirib, ularning asosiylarini kuyidagicha tasniflash mumkin:

1. Zakot insonlarni hasislikdan saqlaydi, ularni mardlikka chaqiradi va ularga berilgan ne'matlar uchun shukr kilishlariga imkoniyat beradi. Zero Allox (j.j.) qur'oni karimda shunday marxamat kilgan: "Kimki o'z nafsi bahilligidan saqlana olsa, bas, ana o'shalar iqbollidirlar" ("Xashr"-9).

2. Zakot insonlar dunyoni haddan ortiq sevishlarining oldini olishi bilan birga, ularning qalblari qotishidan saqlaydi hamda turli xil qalb kasalliklaridan poklaydi.

3. Zakot boylarning kambaHallarga nisbatan shafqat va marxamat tuyHularini oshiradi. Zakot berish natijasida sahovatli boylarning jamiyatdagi etiborlari yuksaladi. Bu holat esa boylar orasida yaxshilik kilishga raHbat uyHotadi.

4. Er yuzida xuzr-halovat, tinchlik-osoyishtalikni buzuvchi tilanchi va ishsizlar sonini kamaytiradi va shu yo'l bilan jamiyatda nochorlik va beqarorlik kabi salbiy holatlarning oldini oladi. Chunki, muhtoj bo'lgan kambaHal och kolgandagina jamiyatda beqarorliklarni ketirib chikarishga, boshqalarning mulkiga tajovuz qilishga intiladi. Agar o'sha faqir boylarning zakot sifatida bergan mollarini olib ishlatsa, insonlarga yomonlik kilishdan, boshqalarga zarar etkazishdan, beqarorlikni yuzaga keltirishdan voz kechadi xamda foydali ishlarni kilishga intiladi.

5. Zakot kambaHallarning ehtiyoj sohibi bo'lishlaridan qutqaradi, ularning normal yashashlariga zamin yaratadi. Boshkacha qilib aytganda zakot ijtimoiy sug'urta hisoblanadi.

6. Zakot berish bilan boylar o'zlarining boyliklarini turli xil balo va ofatlardan saqlaydilar, kambaHallarga bergan sadaqalari sababli mulklariga baraka beriladi. Zero Muxammad (s.a.v.) shunday deganlar: "Mollaringizni zakot bilan qutqaringlar, xastalaringizni sadaqalar bilan davolanglar, balo to'lqinlarini duo va tazarru bilan qarshilanglar"

8. Zakot jamiyatni boylarning katta miqdordagi boylik yiHib kambaHallarni bulardan mahrum kilishlari natijasida yuzaga keladigan inqilob va muholafatlardan saklaydi. (zakot boylarning juda katta mablag'lar yiHib, kambaHallarning iqtisodiy maxrum bo'lishlari natijasida yuzaga keladigan to'ntarish kabi tartibsizliklardan jamiyatni himoya qiladi).

9. Zakot molning sababsiz yiHilib turishining oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, zakot jamiyatda insonlar tomonidan to'planadigan boylikning oqilona taqsimoti orqali muayyan ijtimoiy-iqtisodiy balansni saqlab turish imkonini beradi.

### **Tayanch tushunchalar:**

Zakot tushunchasi, nisob miqdori, ushr, miskinlar, ijtimoiy tenglik, zimmiylar, mujtahidlar.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Zakot tushunchasi va uni mohiyati deganda nimani tushunasiz.
2. Islomda zakotga doir shar'iy hukmlardan misol keltiring.
3. Zakot berishda qanday shartlar mavjud.
4. Zakot kimlarga beriladi va kimlarga berilmaydi.
5. Nisob miqdori tushunchasi va u qanday belgilanadi.

### **O'zbek tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. qur'oni karim ma'nolarining tarjimai va tafsiri. – T., 2004.
2. Ahmadjon Bobomurod «Faroz ilmi» Mavrounnahr nashriyoti T-2005 yil
3. «Muxtasar» Toshkent, Cho'lpon nashriyoti, Toshkent-1994 yil.
4. «Islomda ijara va muzoraba», Mavrounnahr nashriyoti Toshkent-2005
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf «hadis va hayot»
6. Nodir Nabijon o'Hli «halol tijorat sirlari» Mavrounnahr nashriyoti
7. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Savdo, ziroat va vaqf”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Faroz va vasiyatlar”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
9. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Zakot”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
10. Muxtasar. – T.: Cho'lpon nashriyoti, 1994

### **Arab tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.«Mu'malatul bunuk va ahkamuhul shar'iyya» qohira – 2001 yil
- 2.Vahba Zuxayliy «Al-Fiqhul islamiy va adillatuh»
- 3.Tafsirul jalolayn. qoxira,-1999 yil.
- 4.Ali ibn Muxammad Sulton al-Ma'ruf bil qori «An-niqoya muxtasar ul-viqoya», qozon, 1998
- 5.Burxoniddin MarHiloniy «Xidoya», Mustafoi nashriyoti

6. Shayx Axmad Mullajiyvan ibn Abu Sa'id ibn Ubaydullox «Nurul anvor», Yusufiy nashriyoti. 1319
7. Maxmud ibn Axmad al-Ayniy «Al-binoya fi sharxil qidoya», Bayrut.
8. Muxammad Okif «At-tasxiluz-zaruriy li masailil quduriy», Madina,- 1994
9. Abduraxmon ibn Muxammad «Al-fiqx ala mazoxibil arba'», qoxira,- 1997
10. «Mu'malatul bunuk va axkamuxal shar'iyya» qoxira, – 2001 yil

### **Ingliz tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Chapra, M. Umer and Tariqullah Khan (2000), Regulation and Supervision of Islamic Banks, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.
2. DeLorenzo, Y.T. (2000), Shari'ah Supervision of Islamic Mutual Funds,
3. Proceedings of the 4th Harvard Forum on Islamic Finance, USA
4. Obaidullah, M. (2001), Strategies in Islamic Funds Industry: An Exploratory Analysis (co-author: Zafar Sareshwala), Proceedings of the 5th Harvard Forum on Islamic Finance, USA

### **Internet sahifalari:**

[www.islam.ru](http://www.islam.ru)  
[www.IDB.com](http://www.IDB.com)  
[www.COIER.com](http://www.COIER.com)  
[www.KAAL.com](http://www.KAAL.com)  
[www.IERC.com](http://www.IERC.com)

### **3 mavzu. Islom iqtisodiyotida ijara masalalari**

#### **Reja:**

1. Islom iqtisodiyotida ijaraning ta'rifı va shartlari.

2. Ijaraning moliyaviy strukturasi.

3. Zamonaviy lizing va Islom iqtisodiyotidagi moliyaviy lizingning farqli jixatlari.

**1.** “Ijara” so’zi arab tilidagi fe’lidan olingan bo’lib, raHbatlantirmoq, haq to’lamoq, degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu fe’l masdari – ijaraga bermoq, ijara haqi ma’nosida qo’llanadi.

Ijara – ma’lum bir ko’chmas mulk yoki buyumni kelishilgan haq evaziga, ya’ni pul yoki o’zining jinsdoshi bo’lmagan narsaga muayyan muddatga foydalanish uchun berishdir.

Ijara ham savdo-sotiq kabi muomalada ko’p uchraydigan iqtisodiy faoliyat turlaridan biridir. Savdo-sotiqdan ijaraning farqi shundaki, ijara vaqtinchalik bo’lsa, savdo abadiydir, chunki unda tovar bir tomondan ikkinchi tomonga berilishi bilan birga mulkka egalik ham to’liq boshqa sub’ektga o’tadi.

Ijaraning islom shariatidagi o’rni

Abu Bakr al-Asom, Ismoil ibn Ulya, hasan al-Basriy, al-qoshoniy, an-Nahruniy va ibn Kaysondon boshqa barcha faqih olimlar ijaraning islom shariatiga muvofiq ekaniga ittifoq qilganlar. Chunki, ijara o’zaro foydali savdo turlaridan biri hisoblanadi.

Ulamolar ijaraning joizligi haqida qur’oni karim, Sunnat va Ijmo’dan dalil keltirishadi.

Sunnat: Abu Ya’lo rivoyatida, Abu hurayra (r.a.)dan: «PayHambarimiz (s.a.v.): Teri qurimay ishchining haqini ado etinglar, dedilar. Abdurazzoq rivoyatida, Abu hurayra va Abu Said al-hurriy (r.a.)dan: PayHambarimiz (s.a.v.): Kimki bir ishchini yollasa, unga beradigan haqini aytib qo’ysin», dedilar. Ahmad, Abu Dovud va Nasoiy rivoyatlarida, Sa’d ibn Abu Vaqqos (r.a.)dan: Biz suvsiz erni suvli er badaliga kiraga berar edik. PayHambarimiz (s.a.v.) bundan qaytardilar va erni oltin yoki kumush badaliga kiraga berishni buyurdilar.

Islom iqtisodiyotida ijaraning shartlari:

Ijara munosabatiga kiruvchi insonning aqli raso bo’lishi.

Demak ijara bitimi aqli zaif, yosh bola kabi bu munosabatga kirishish shartini bajara olmaydigan kishilar tomonidan tuzilmaydi.

Lizingga beruvchi aktivni lizingga oluvchiga naqd berishi imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Xizmat ijaraga olinganda, ushbu xizmatni oluvchiga Alloh taolo tomonidan faqat o'zi bajarishi shart bo'lgan farz va vojib kabi amallardan biri bo'lmasligi shart. Misol uchun, bir kishi aytsaki, birodar mana bu pulni olib mening o'rnimga haj qilib kelasiz. Vaholanki, haj amalini ado qilishlik o'z zimmasiga farz hisoblanadi.

Tomonlar roziligi. Ijara biror bir aktivga ega bo'lgan shaxs renta evaziga ikkinchi tomonga aktivni muayyan muddat va ma'lum qiymat uchun foydalanish huquqini o'tkazish shartnomasidir.

Lizingga berilayotgan ob'ekt qiymatga ega bo'lishi lozim.

Lizingga berilayotgan aktivning korpusi uning egasida qoladi, foydalanish huquqi esa ijara oluvchiga o'tkaziladi. Bundan kelib chiqib, iste'mol qilinadigan tovarlarning barchasini lizingga berib bo'lmaydi. Shuning uchun naqd pul, oziq-ovqat va qurol-yaroqlarni lizingga berib bo'lmaydi, chunki bunday tovarlar iste'mol qilinmaguncha ulardan foydalanib bo'lmaydi. Agar shu turdagi tovarlar lizingga berilsa, qarz hisoblanadi va qarz shartlari amalga oshiriladi, aks holda islom fiqxiga zid ravishda fosid ijara vujudga keladi. har qanday nojoiz ijara to'lovlari qarzdagi foiz deb qaraladi.

Barcha egalik huquqi majburiyatlari aktiv egasi zimmasida bo'ladi, biroq undan foydalanish majburiyatlari lizingga oluvchiga yuklanadi. Masalan A shaxs biror uyni V shaxsga ijaraga berdi. Bunda uyga egalik huquqi bilan bog'liq soliqlarni uy egasi – A shaxs to'laydi, suv, elektr va uydan foydalanish bilan boHliq bo'lgan barcha xarajatlar V shaxs – ijaraga oluvchi zimmasida bo'ladi.

Lizing muddati aniq ko'rsatib o'tilishi shart.

Lizingga oluvchi aktivdan shartnomada ko'rsatilmagan biror bir boshqa maqsad yo'lida foydalanish huquqiga ega emas. Agar shartnomada aniq maqsad ko'rsatilmagan bo'lsa, lizingga oluvchi aktivdan xohlagan maqsadda foydalanishi mumkin. Biroq nojoiz maqsadlar yo'lida foydalanmoqchi bo'lsa, lizingga beruvchi tomonidan ruxsat berilmagunicha u aktivdan foydalana olmaydi.

Ijaraga beruvchi har qanday e'tiborsizlik va ehtiyotkorsizlik tufayli yuzaga keladigan zararlar uchun kompensatsiya undirishi mumkin.

Lizingga berilayotgan aktivning riski ijara muddati davomida ijarachining o'zida qoladi, shu ma'noda har qanday yo'qotish, (ijaraga oluvchining



boshqaruvidan tashqari tabiiy xolatdagi yuz beradigan) zarar ijaraga beruvchining hisobida bo'ladi.

Mushoraka asosida mulkka egalik qilib, uni lizingga berish mumkin. Lizing faoliyatidan kelib tushgan renta sheriklar orasida ularning hissalariga mos ravishda taqsimlanadi.

Mushoraka asosidagi lizingda bir sherik faqat o'zining ikkinchi sherigiga aktivdagi o'z hissasini lizingga berishi mumkin, boshqa birovga emas.

Lizingda lizingga berilayotgan aktiv, tomonlar orasida aniq ko'rsatib o'tilishi lozim. Masalan: A shaxs V shaxsga: «Men senga do'konimning bittasini ijaraga berdim» desa, ijara fosid bo'ladi. Bunda qaysi do'kon berilganligi aniq ko'rsatilishi talab etiladi.

Ijara haqi shartnoma tuzish vaqtida butun muddat uchun aniq ko'rsatilishi shart. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, ijara haqi ham o'z navbatida bir necha qismga bo'linadi. a) So'm, dirham va dollar kabi naqd pul shaklida. Bunda ham savdo bitimida bo'lganidek, pulning miqdori va sifati bayon etiladi. Agar bir shaharda faqat bir xil pul muomala qilinsa, shartnomada pulning miqdor va sifati aytilmasa, kelishuv iste'moldagi pulga tuziladi. Agar iste'moldagi pullar bir xil bo'lmasa, ijara bitimi fasod bo'ladi. Ijara evaziga to'lanadigan pulda muddatni bayon qilish shart emas. Shuning uchun uni darhol yoki keyinroq topshirish mumkin. Agar muxlat belgilansa, to'lovchi zimmasiga qarz bo'ladi.

b) Vazn va adadga ega bo'lgan qiymatli narsalar ham ijara haqi sifatida pul kabi salohiyatlidir.

v) Ijara haqi hayvon bo'liishi ham mumkin. Bunda ham ijara haqi sifatida berilayotgan hayvonning adadi va sifati aniq bo'lishi shart. Aks holda bitim fasod bo'ladi.

g) Ijara haqi tijorat matolari bo'lishi ham mumkin. Bunda matoning miqdori, sifati va muxlati bayon etilishi shart. Aks holda bitim fasod bo'ladi. Chunki, tijorat matolari ijara haqi bo'lganda salam<sup>2</sup> (buyurtma) bo'ladi. Shuning uchun salam savdosida shart qilingan narsa bunday ijara bitimida ham shart qilinadi.

d) Ijara haqi shu bitimdagi narsaning jinsidan bo'lgan foyda bilan to'lanmasligi kerak. Shunga binoan, uy-joy ijara haqi boshqa bir uy-joy ijarasi haqi bilan, bir kishining xizmat haqi boshqa kishining xizmati bilan to'lanmasligi lozim.

Lizing kuchga kirgan vaqtda har bir faza uchun aniq ijara haqi miqdori ko'rsatilish sharti bilan, lizing muddati davomida turli xil fazalar uchun turli xil miqdordagi ijara haqlarini belgilashga ruxsat beriladi.

Masalan (1): A shaxs o'z uyini V shaxsga 5 yillik muddatga ijraga berayapti. Birinchi yilning har bir oyi uchun 200 \$ miqdorida renta belgilandi va har bir keyingi yilning rentasini avvalgisidan 10% ortiq qilib belgilashga kelishildi. Bunday lizing joizdir.

Masalan (2): Yuqoridagi misol, A shaxs ijara haqini birinchi yilning har bir oyi uchun 200\$ miqdoridagi o'zgarmas rentaga kelishdi. Kelgusi to'rt yilning har biri uchun lizingga beruvchi xohshiga binoan renta belgilanadi. Bunday lizing nojoizdir, chunki renta kelgusi yillar uchun aniq qilib belgilanmadi.

Lizingga beruvchi tomonidan aktiv sotib olinganda agregat narx asosidagi rentani belgilash moliyaviy lizingda normal holat deb qaraladi. Agar ikki tomon rozi bo'lsa bu shariat ahkomlariga zid emas.

Ijaraga beruvchi bir tomonlama ijara haqini o'zgartirishga haqli emas. Bunday o'zgartirishlar ikki tomon kelishuvisiz amalga oshirilishi joiz emas.

Lizingga oluvchi aktivlar unga etib kelgunicha lizing beruvchiga oldindan to'lovlarni amalga oshrishi mumkin. Ammo bu to'lov lizingga beruvchining «hisobida» to'lov sifatida turadi va ijaradan foydalanishiga qarab o'zgartirilib turiladi.

Lizingga oluvchi qo'liga aktiv kelib tushishi bilan ijara muddati boshlandi deb hisoblanadi, xoh u aktivdan foydalanishni boshlasin, xoh boshlamasin, buning ahamiyati yo'q.

Agar lizingga berilayotgan aktiv yaroqsiz holatga kelib qolsa va uni ta'mirlab bo'lmasa, shu kundan boshlab lizing shartnomasi bekor qilinadi. Bu holatda, zarar lizingga oluvchining ehtiyokorsizligi yoki beparvoligi sababli bo'lsa, lizingga beruvchi shu miqdorda kompensatsiya undirishga haqli.

## **2. Ijaraning moliyaviy strukturalari**

Ijaraning eng oddiy shakli sifatida quyidagi munosabat qaralishi ta'riflanishi mumkin. Bank mulk egasi sifatida muayyan vaqtda belgilangan renta (ish haqi) evaziga o'z mijoziga aktivni lizingga beradi. Bankning bu faoliyati xuddi Vendor (sotuvchi) kabi namoyon bo'ladi. Islom iqtisodiyoti nuqtai nazaridan quyida ko'rilayotgan I-struktura to'laligicha klassik ijara xususiyatlariga muvofiqdir. Shunga karamay, bu struktura unchalik ma'lum

va mashhur hisoblanmaydi, undan foydalanish ham kam holatlarda uchraydi. Islom banklari odatda turli xil moddiy aktivlar bo'yicha ish olib bormaydi. II-struktura Vendorni ijara jarayonida ishtirok etishini ifodalaydi. Bu strukturada shartnoma bo'yicha ikki bosqich mavjud. I-bosqichda bank mijozi uchun zarur bo'lgan aktivlarni sotuvchidan xarid qilib oladi. II-bosqichda esa bank xarid qilingan aktivning mutloq egasi sifatida unga muayyan vaqtda ma'lum belgilangan to'lovlarni amalga oshiradi.

### I-struktura

Kontur chiziqlar mablag'lar oqimini bildiradi

Faoliyatlar:

Mijoz Bank-Vendorga murojaat qiladi va aktivlarni ko'rib chiqadi va renta bilan boHliq bo'lgan ma'lumotlarni to'playdi.

Bank aktivni mijozga lizingga beradi, uni iste'foda etish va muayyan maqsadda foydalanish uchun ruxsat beradi.

Mijoz ijara to'lovlarini (muayyan) muddatda amalga oshiradi.

Aktiv bankka qaytariladi.

### II-struktura

Kontur chiziqlar mablag'lar oqimini bildiradi

Faoliyatlar:

Mijoz Vendorni yoki ta'minlovchini aniqlaydi va murojaat qiladi hamda jarayon bilan boHliq barcha kerakli ma'lumotlarni to'playdi.

Mijoz aktivni ijaraga olish maqcadida bankka murojaat qiladi va ijaraga yoki sotib olish sharti bilan bankdan lizingga aktivni oladi.

Bank Vendorga aktiv narxlarida to'lovni amalga oshiradi.

Vendor egalik huquqini bankga o'tkazadi.

Bank aktivni lizingga beradi. Uning tasarruf etilish huquqini va ma'lum muddat iste'foda etilishi uchun mijozga ijaraga beradi.

Mijoz ijara to'lovlarini (muayyan) muddat(lar)ida amalga oshiradi.

Aktiv bankka qaytariladi.

Yana bir boshqa holatni kuzatish mumkin-ki, bunda bank to'Hridan-to'Hri Vendor bilan aloqa qilishni, ya'ni undan mahsulotlarni sotib olish va sotish operatsiyalarini amalga oshirishni xohlamaydi. Shundan kelib chikib, bank mijozini vakil etib tayinlaydi. Ushbu holatda, struktura esa quyidagicha tus oladi:

### III-struktura

Kontur chiziqlar mablag'lar oqimini bildiradi

Faoliyatlar:

Bank va Mijoz o'rtasida ikki tomonlama shartnoma tuziladi. Shu asnoda bank lizingga berishni maqsad qiladi, mijoz esa muayyan muddatda ma'lum ijara haqini to'lash evaziga aktivlarni lizingga oladi.

Bank mijozni o'zining vakili etib tayinlaydi.

Mijoz vendorni aniqlashtiradi, bank tomonidan aktivni tanlaydi va tafsilotlarini bankka taqdim etadi. Bunda vendorning nomi va uning sotish narxlarini bankka yozma ravishda havola etadi.

Vendor bankning (mijozi)ga aktivning moddiy etkazib berilishini ta'minlaydi. Bank tomonidan maxsus tayinlangan shaxslar guruhi mijozning moddiy aktivni tasarruf etishini nazorat qilib turadi.

Bank vendorga sotib olish narxi bo'yicha to'lov to'lash haqida kelishuv tuzadi.

Vakillik shartnomasi nihoyasiga etadi. Ikki tomonlama kelishuv asosidagi shartnoma bo'yicha bank aktivni lizingga beradi va tasarruf etish hamda maqsadli (tayinli) foydalanish huquqini mijozga taqdim etadi.

Mijoz ijara to'lovlarini (muayyan) muddat(lar)ida amalga oshiradi.

Aktiv bankka qaytiriladi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, bank o'z mijozi bilan o'zaro ikki xil alohida-alohida munosabatlarni yo'lga qo'ygan. Birinchisi, mijoz bank nomidan vakillik vazifasini bajarib, aktivni sotib olishni maqsad qildi. Bu o'rinda, ikki tomonlar orasidagi munosabat boshliq (prinsipal) va vakil orasidagi munosabat kabidir. Ikkinchi holatning ko'rinishi esa mijozga aktivni ta'minotchi etkazib berishdan so'ng boshlanadi. Bu esa, ijarachi va ijaraga oluvchi munosabatini yuzaga keltiradi. Yuqoridagi ikki holatni, ya'ni tomonlar orasidagi aloqalarni adashtirib yoki aralashtirib yubormaslik kerak. Birinchi holatda mijoz ijaraga oluvchining majburiyatlarini o'z bo'yniga olmaydi. Ushbu vaqt mobaynida, u faqat vakillik ma'suliyatiga ega bo'ladi xolos va javobgar bo'ladi. Biroq, aktiv uning tasarrufiga o'tishi bilan unga ijaraga oluvchining vazifasi yuklatiladi va bu uning mas'uliyati hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan uchta strukturaning umumiy holatda ma'nosi birdir. Ya'ni ijaraga egalik huquqi bankda qolib, lizing muddati tugagandan so'ng aktiv yana bankka qaytariladi. Bu "operatsion lizing" deb yuritiladi. Oddiy qilib ifodalaganda agar aktiv yaxshi holatda bo'lsa, bank uni yana boshqa sub'ektga lizingga berishi mumkin yoki muqobil tarzda ikkilamchi bozorda

sotib, qutqaruv (salvage) yoki qoldiq qiymatiga ega bo'lishi mumkin. Bu ikkisi ham muqobil variant bo'lib hisoblanadi. Agar talab qilinayotgan aktiv birdan-bir dastlabki mijozning ehtiyojlarini qondiruvchi maxsus jihoz bo'lib xizmat qilsa, bunday holatlarda bank uchun aktivni lizinga oladigan ikkinchi mijozni qidirib topish muammoga aylanadi. Bundan tashqari aktivlar uchun ikkilamchi bozorning mavjud bo'lmasligi ham aktivni sotishda qiyinchilik tuHdiradi.

Yuqoridagi muammolar ijara muddati davomidagi aktivning iqtisodiy hayotiga boHliqdir. Agar aktiv dastlabki shartnomaning boshidagi holatida shartnoma oxiridagi holati singari saqlanib qolgan bo'lsa, muammolar o'z-o'zidan bartaraf etilgan bo'ladi. Shuning uchun bank aktivni shundoq hadya sifatida hech qanday muhokamalarsiz berib yuborishi yoki oddiy holatda aktivdan voz kechishi mumkin. Ta'kidlash joizki, bu kabi holatda, hadya shartnomasi yuzaga keladi. U esa mustaqil shartnoma bo'lib, ijara shartnoma tarkibiga kirmaydi.

Agar ijara muddati oxirida sezilarli darajada qoldiq qiymat (residual) yuzaga kelsa, aktivning iqtisodiy hayotidan ancha past bo'lsa, nima holat yuz beradiq Bank uchun birdan-bir muqobil variant bank aktivlarini mijozga oldindan kelishgan narxlarda ijara muddati so'nggida sotishdir. Bu struktura lizing-sotish yoki al-ijara summa al-baiy (AITAB) deb yuritiladi. Yana bir bora ta'kidlash joizki, sotish shartnomasi mustakil shartnoma bo'lib, u ijara shartnomasi tarkibiga kirmaydi. Ijara muddati so'nggida aktiv qiymat qoldiHi katta bo'lishiga qaramasdan bank aktivni hadya etishi mumkin. Bunda bankning asosiy maqsadi sarflangan investitsiyani qoplash va qo'yilgan investitsiya samarasini qaytarishdir. Bu holat bankda quyidagicha namoyon bo'ladi: muddatli lizing rentasi lizing aktivining sotish narxi (xuddi lizing-sotishdagi kabi) yoki faqatgina ijobiy lizing rentasi orqali erishiladi, agar hadya strukturasi qo'llansa. Yukoridagi har ikki holatda ham, aktiv mijoz tasarrufida qolishi kuzatilmoqda. Bu strukturada aktivni biz "moliyaviy lizing" deb ataymiz. Oddiy qilib aytganda stukturaning o'zgargan shakli struktura-IV da yoritilgan.

#### IV-struktura

Kontur chiziqlar mablag'lar oqimini bildiradi.

1-7 gacha bo'lgan faoliyatlar xuddi III-strukturada ko'rsatilganidek.

8. Bank aktivga egalik qilish huquqini ijara so'nggida sotish shartnomasi yoki sovHa sifatida ijaraga oluvchi taqdim etadi.

Yuqoridagi strukturaning 8 bandida bank tomonidan bir tomonlama amalga oshirilgan oldindan belgilangan narxlardagi aktivning mijozga sotilishi yoki hadya etilishi munosabati ko'rsatilgan. Shunga o'xshash munosabatlar asosiy ijara kelishuvlari doirasida ko'shimcha kelishuv tarzda amalga oshiriladi. Mijoz nuqtai-nazaridan esa bunday munosabatda ijara shartnomasiga muvofiq sotib olish yoki sotib olmaslik mijoz tanlov huquqi bo'lib hisoblanadi. Tub ma'noda esa ixtiyoriy tanlash huquqi (option) majburiyatlarni shart qilmaydi, bir tomonlamal shartnoma majburiyatlari esa faqat bankka tegishli bo'ladi.

Abu-Dabi Islom bankida mulkni moliyalashtirishda ijara munosabatlari

Bank mol-mulkni sotuvchidan tannarxda (xarajat narxlarida) sotib oladi va uni iste'molchiga avvaldan belgilangan shartlar asosida lizingga beradi. Iste'molchi bankdan mol-mulkni avvaldan belgilangan narxlarda yaqin kelajakda sotib olishga kelishadi. Bank shartlashilgan to'lovlarni qabul qilgandan so'ng, mulkni iste'molchiga o'tkazadi. har oy iste'molchi renta to'laydi asosiy aktivning tannarxining bir qismini to'lov sifatida to'laydi. Renta – standart foiz stavkasi mulkning haqiqiy amortizatsiya qilinmagan tannarxi va marjina yiHindisidan iborat.

Iste'molchining bankdan xohlagan vaqtida avvaldan belgilangan narxda mulkni sotib olish ixtiyori mavjud, bu esa iste'molchi sotib olish ixtiyor huquqidan foydalanish vaqtidan kelib chiqadi.

Ijara egalik huquqini mijozga o'tkazish bo'yicha yana bir boshqa metodi bu ijaraning sherikchilik (mushoraka yoki murobaxa) asosidagi ijaralar kombinatsiyasidir. Bu struktura uy-joy qurilishini moliyalashtirishning xuddi o'zidir. Bu strukturada bank va uning mijozi sherikchilik yuzasidan ish tutib, mijozni qiziqtirgan mulkga egalik qilishi maqsadida moliyalashtirishni amalga oshirishga asoslanadi. Bank va uning mijozi aniq nisbatlarda hamkorlikdagi yoki sherikchilikdagi aktsiyaga o'z hissalarini ko'shadilar. Bank sherikchilikning agent-menedjeri bo'lib xizmat qiladi. Mulk sotib olingandan so'ng bank aktivni mijoziga muayyan muddatga lizingga beradi. Mijozning renta to'lovlari yiHindisi esa bankning sherikchilikdagi hissasini sotib olishga qaratiladi. Natijada vaqt o'tishi bilan bankning ulushi kamayib borish xususiyatiga ega bo'ladi. Oxir-oqibat, bankning sherikchilikdagi ulushi "0"ga tushadi va mijoz esa mulkning to'laqonli egasiga aylanadi. Ijara bilan kombinatsiyaga kirishgan mushoraka va murobaxa faoliyatini qo'llashga qaratilgan mexanizm islom

bankining va moliyasining so'nggi innovatsiyalaridan biridir. Mexanizmn-ing ko'rinishi IV-strukturada tasvirlangan.

Avval eslatib o'tilganidek, yuqoridagi struktura asbob-uskuna va uy-joy qurilish moliyasi bilan ma'lum va mashhurdir.

Odatda talab qilinayotgan moliyaviy ehtiyojlar katta hajmda bo'lishi va bitta kichik bankning moliyaviy holati bunga javob bera olmasligi mumkin. Mijoz katta hajmdagi zavod va texnika-texnologiya yoki jismoniy aktivlar fondiga muhtoj bo'lsa, bunday holatlarda bank ko-ijara jarayonini qo'llaydi yoki o'zi menedjer (yoki bosh-ijarachi) sifatida richag (dastak) shartnoma (leverage transaction)sini amalga oshiradi. Ko-ijara sharoitida bank maxsus maqsadli vosita (Special Purpose Vehicle-SPV)ni qo'llaydi yoki asosiy ijara kelishuvini o'zi tuzadi va bunday shartnomani boshqa moliyaviy institutlarning kapital fondiga o'z aktsiyalarini qo'shishlari uchun taklif bildirish orqali amalga oshiradi. Bu sarmoya fondi islomda joiz deb topilgan. Chunki, bunda mushoraka va mudoraba kabi moliyalashtirish operatsiyalar orqali aktivlar moliyalashtiriladi. Dastaklangan ijarada umumiy moliyalashtirish qarz olish yo'li bilan ham amalga oshirish joiz bo'laveradi, ya'ni ijaraning bunday turida qarz olish ma'qul bo'lganligi yuzasidan shunday qilinmoqda. Asosiy ijara shartnomasi negizida aktivlar fondining muayyan komponentlarini qarzi ijara va murobaxa yo'li orqali qarzi ta'minlanishi mumkin. Lizingga berilayotgan aktivning sub ijarasi yoki ijarasi halol deb belgilanadi, agar u ijarada ko'rsatilgan bo'lsa yoki ekspress (tezkor) ruxsat ijarachidan olingan holatlarda. Ikki ijaraning foiz stavkalari turli xil bo'lishiga ruxsat berilgan. Bundan tashqari, ijarachi lizingga berilgan aktivni qisman yoki to'liq uchinchi tomonga sotishi mumkin, agar yangi tomon ijarachining o'rnini egallasa step in se shoes of se lessor SPVga oqib keladigan umumiy naqd pul daromadlari ko-lizingchilar yoki investorlar orasida taqsimlanadi. Taqsimlashda ularning lizingga berilgan aktivlardagi hissalariga mos ravishda ish tutiladi. Bank yoki bosh ijarachi boshqa ko-lizingchilar yoki investorlarni o'z boshqaruv xizmatlari uchun badal undirishga haqli, bu esa rentalar taqsimlanishdan avval amalga oshirilmaydi. Beshinchi jadvalda bu strukturani ko'rishimiz mumkin.

Shariat BBA-murobaxa bilan boHliq cheklovlari muhokamaga qo'yilgan paytda biz vendorning shaxsiyati mijoznikidan farqli bo'lishi shart qilinishini kuzatgan edik. Yoki bo'masa bai al-iy-nax (qayta sotib olish) murobaxada oz miqdordagi qarzga (taqiqlangan riboni o'z ichiga olgan) teng

bo'lib qoladi. Biroq bu cheklovning ijara vaziyatida daxli yo'q. Sotish va lizing – qaytarish (sale and lease-back) kelishuvlarida mijoz o'zi egalik qilib turgan aktivni qandaydir narxda bankka sotishi va uni qayta lizingga olishi mumkin.

#### IV-struktura

Kontur chiziqlar mablag'lar oqimini bildiradi.

##### Faoliyatlar:

Bank mushorakaga asoslangan sherikchilikni mijoz bilan birga amalga oshiradi. Mijoz mushoraka yo'li bilan sotib olinadigan mulkni muayyan muddatdagi ma'lum renta hisobiga lizingga oladi. Bank o'zini bir tomondan sherikchilikning agent menejeri sifatida tayinlashi mumkin.

Bank mushoraka nomidan mulkni sotib oladi.

Mulkni mijoz lizingga oladi va renta daromadlarini shakllantiradi.

Bank rentani tomonlar orasida taqsimlaydi. hissaning bir qismi bankka rentada daromadi sifatida qaytadi.

Boshqa bir qismi – mijozning renta daromadlaridagi ulushi bankning egalik qilishdagi aktsiyalarini sotib olishga qaratiladi. Bank aktivning egalik huquqini mijozga o'z hissasi "0"ga tushgandagina to'laligicha o'tkazadi.

#### V-struktura

Kontur chiziqlar mablag'lar oqimini bildiradi.

##### Faoliyatlar:

Bank SPV usulini qo'llab boshqa moliyaviy institutlarni qarz yoki mablag'larini o'z sarmoyasi hissaga qo'shishlarini taklif etadi va bank o'zi menejer yoki bosh ijarachi vazifasini bajaradi. qarz va mablag'lar moliyalashtirish fondiga shariat halol deb topgan murobaxa, mushoraka, ijara va mudoraba kabi moliyalashtirish munosabatlari orqali yililishi mumkin. Bank SPVning agent menedjeri etib tayinlanadi, keyingi faoliyatlar uning majburiyatida va javobgarligida bo'ladi.

SPV aktivni xarid qiladi.

O'zaro kelishuvlar asosida SPV aktivni lizingga beradi, tasarruf etish va iste'foda qilish huquqini mijozga o'tkazadi. Mijoz ijara to'lovlarini (muayyan) muddat(lar)ida amalga oshiradi.

Bank boshqaruv xizmatlari uchun to'lovni undirib oladi va rentada oldindan belgilangan ulushini o'z hisobiga o'tkazadi.



Bank tomonlarning barchasi bilan tuzilgan kelishuvlar asosida hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

Bank qoldiq qiymatidagi hissasini o'z hisobiga o'tkazadi.

Natijada tezkor naqd pul oqimi mijoz hisobiga kelib tushadi (aktivning tannarxi shaklida). Mijoz esa bankka to'lanishi lozim bo'lgan muddatli ijara rentasi hisobiga aktivlardan foydalanishda davom etadi va aktivga egalik qilish huquqini to'laligicha qo'lga kiritadi. Ijaranig sotish va lizing – qaytarish strukturasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

#### VI-struktura

Kontur chiziqlar mablag'lar oqimini bildiradi.

Faoliyatlar:

Mijoz aktivni bankka naqd pulga sotadi (aktivning egalik huquqi mijozda qoladi toki bu haqdagi hujjatlar bankka etib borgunga qadar).

Mijoz yuqoridagi aktiv orqali bank bilan ijara shartnomasini tuzadi.

Mijoz ijara to'lovlarini (muayyan) muddat(lar)ida amalga oshiradi.

Bank ijara muddati tugashi bilan aktivni hadya sifatida yoki sotish evaziga mijozga taqdim etadi.

### **3. Zamonaviy moliyaviy lizing va Islom iqtisodiyotidagi lizingning farqli jihatlari**

Bugungi kunda zamonaviy moliyaviy lizing va Islom iqtisodiyotidagi amaliy lizing orasidagi farqlar quyidagi xususiyatlar orqali ko'rsatib o'tiladi.

a) Lizingni kuchga kirishi.

Savdo shartnomadan farqli ravishda ijara shartnomasi kelajakda amalga oshadi. Ta'kidlab o'tish joizki, shariatda forvard savdoga ruxsat berilmaydi, ammo ijara bundan mustasno hisoblanadi. Faqat aktiv foydalanuvchiga etib borgandagina ijara haqi amalga oshirila boshlanish sharti bilan forvard ijaraga ruxsat beriladi. Moliyaviy ijaraning ko'p holatlarida moliyaviy institutlar aktivni lizingga oluvchi orqali xarid qiladi. Lizingga oluvchi ijaraga beruvchi nomidan aktivni sotib oladi. Ba'zi lizing shartnomalarida lizingga oluvchi aktivni ijaraga beruvchi tomonidan sotib olgan paytdan boshlab ijara shartnomasi kuchga kiradi. Biroq aktiv lizingga oluvchining qo'liga kelib tushdimi yoki yo'qmi bu hisobga olinmaydi. Natijada lizingga oluvchining majburiyatlari aktivni unga etkazib berilgan muddatdan avval boshlanishi mumkin. Ammo, shariatda bunga ruxsat berilmaydi, chunki lizingga oluvchi tomonidan berilayotgan to'lovlar riboga aylanib qoladi.

haqiqiy islomiy ijaraning ahamiyati shundaki, ijara muddati aktivning to'lovi amalga oshirilgan vaqtdan emas, balki aktivni lizingga oluvchining qo'liga kelib tushgan paytdan boshlanadi. Agar to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng ta'minotchi aktivni etkazib berish muddatini kechiktirsa, o'tgan vaqt uchun ijaraga oluvchi ijara haqini to'lash majburiyatidan xalos bo'ladi.

b) qatnashuvchilar orasidagi turli munosabatlar.

Agar ijaraga beruvchi tomonidan lizingga oluvchiga ishonch bildirilsa va lizingga berilayotgan aktivni sotib olish uning o'ziga ishonib topshirilsa, u holda moliyaviy institut va mijoz o'rtasida izchil ravishda ikki turdagi munosabatlar kelib chiqadi. Birinchisi, mijoz institutning vakili etib tayinlanadi va aktivni institut nomidan sotib oladi. Bu o'rinda, ikki tomonlar orasidagi munosabat direktor va vakil orasidagi munosabat kabidir. Ikkinchi holatning ko'rinishi esa mijozga aktivni ta'minotchi etkazib berishdan so'ng boshlanadi. Bu o'rinda, ijarachi va ijaraga oluvchi munosabati yuzaga keladi. Yuqoridagi ikki holatni ya'ni tomonlar orasidagi aloqalarni adashtirib yoki aralashtirib yuborilmaslik lozim. Birinchi holatda mijoz ijaraga oluvchining majburiyatlarini o'z bo'yniga olmaydi. Bu vaqt

mobaynida, u faqat agentlik mas'uliyatiga ega bo'ladi xolos va javobgarlikdan holi hisoblanadi. Biroq aktiv uning tasarrufiga o'tishi bilan unga ijara oluvchining vazifasi yuklatiladi va bu uning mas'uliyati kiradi.

Shuningdek bu kabi holatlarda murobaxa va ijara orasida farq mavjud.

Birinchidan, halol savdoda faoliyatlar joriy vaqtda sodir etilayotgan bo'lishi lozim. Chunki, shariatda kelajakdagi muddatda savdo qilish harom hisoblanadi. Biroq avval aytib o'tganimizdek, istisno tariqasida lizingda bunday xususiyatlarning mavjud bo'lishi joizdir.

Ikkinchidan, shariatning eng asosiy tamoyili kishi hech qachon riskni o'z bo'yniga olmagan mulk uchun foyda yoki to'lovlar talab qila olmaydi. Shariatda, mijozga tovar ta'minotchi tomonidan etkazib berilgandan so'ng savdo amalga oshadi. Agar buni biz murobaxa misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, mulkning riski bir daqiqa ham sotuvchining majburiyatida bo'lmaganligi tufayli u foyda talab qila olmaydi. Ijara shartnomasida risk va egalik huquqi lizing muddati davomida lizingga beruvchi tomonning majburiyati hisoblanadi, chunki egalik huquqi to'laligicha o'tkazilmaydi. Shuning uchun aktiv mijozga etkazilishi bilan shartnoma kuchga kirsayuchidagi holatlar kuzatilmaydi.

c) Egalik huquqi bilan boHliq xarajatlar.

Ijaraga beruvchi aktivning egasi hisoblanib, u aktivni ta'minotchidan sotib olar ekan, xarid qilish bilan boHliq barcha xarajatlarni o'zi amalga oshiradi. Shuningdek aktivni mamlakatga import qilish, fraxtalash va shu kabi xarajatlar ham uning hisobidan bo'ladi. Albatta, u rentani belgilash vaqtda barcha xarajatlarni hisobga olishga haqlidir, xarid qilish bo'yicha barcha xarajatlar aktiv egasiga yuklanadi. Bunga zid ravishda oddiy moliyaviy lizingda bunday holatlar ko'rsatib o'tilmaydi.

d) Aktivga zarar etganda tomonlarning majburiyatlari.

Avvalroq aytib o'tilganidek lizingning asosiy tamoyillariga asosan lizingga oluvchi aktivdan foydalanishdagi e'tiborsizlik va ehtiyotkorsizlikka javobgardir. qo'shimcha tarzda u aktivning emirilishi (amortizatsiyasi)ga ham javobgar bo'lishi mumkin. Biroq uning boshqaruvidan tashqari bo'lgan omillar sababli vujudga keladigan holatlarga javobgar hisoblanmaydi. An'anaviy «moliyaviy lizing» shartnomalarida umumiy holda ikki holat orasida hech qanday farqlar mavjud emas. Biroq islomiy tamoyillarda esa asosan har ikki holatga alohida-alohida e'tibor qaratiladi.

e) Uzoq muddatli lizingda turli xil rentalar;

Uzoq muddatli lizingda yagona renta miqdori yoki foizni belgilash foydali hisoblanmaydi, chunki vaqti-vaqti bilan bozor holatlari o'zgarib turadi. Bunday holatlarda ijaraga beruvchining ixtiyorida ikki yo'l mavjud:

a) u lizing muddati belgilangandan so'ng ma'lum vaqtlarga mos ravishda renta o'sishini (masalan 5%ga) shartnomada shartlashishi mumkin.

b) u qisqa muddatli lizingga shartlashishi mumkin. Shundan so'ng tomonlar o'zaro xohishlariga binoan yangi shartlar asosida shartnomani yangilab turishlari kelishuvga ko'ra amalga oshiriladi. har ikki tomon yangi shartnomadan voz kechish huquqiga ega.

Bu ikki usul Islom Fiqhi talablariga to'liq javob bera oladi. Shunga qaramay ba'zi zamonaviy olimlar uzoq muddatli lizingda renta miqdorini hammaga ma'lum bo'lgan "benchmark" ga boHliq qilib belgilash joiz ekanligini aytib o'tishgan. Masalan, hukumat tomonidan ijara beruvchiga soliqlar miqdorining oshirilishi renta to'lovlarini mos ravishda oshirish shartnomada ko'rsatib o'tilishiga zid kelmaydi. Shunga o'xshash yillik inflyatsiya foizi boHliq ravishda renta foizini ham o'zgartirish mumkin. Ana shu qoidaga asoslanib Islomiy banklar renta miqdorini belgilashda "benchmark" sifatida foiz stavkasidan foydalanishi mumkin. Islomiy banklar ham boshqa banklar kabi ko'p foyda ko'rishni xohlaydi. Bank o'zgarmas renta miqdorini belgilagandan ko'ra, foiz stavka orqali belgilashni afzal ko'radi. Natijada renta foiz stavkasiga yoki foiz stavkasi qo'shimcha miqdoriga. Biroq foiz stavkalarining o'zgaruvchan, noqat'iy va turli xil bo'lganligi sababli butun muddat uchun qat'iy belgilash imkoniyati bo'lmaydi.

### **Tayanch iboralar:**

Ijara, bog'lanish sharti (in'iqod), amalga oshirish sharti (nafoz), to'Hri bo'lish sharti (sihhat), yakuniy zaruriy sharti (luzum), vendor, lizing, renta, murobaha, mushoraka, uzoq muddatli aktivlar

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ijaraning ta'rifini keltiring.
2. Nima uchun pulni ijaraga berish islom iqtisodiyoti nuqtai nazaridan mumkin emas.
3. Ijaraning necha turi mavjud va ular haqida ma'lumot bering.
4. Ijaraning moliyaviy strukturalari nimalardan iborat.
5. Islom banklari qaysi usulda ijara faoliyatini amalga oshiradi.
6. Uzoq muddatli lizingdan qanday foyda olinadi.

### **O'zbek tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. «qur'oni karim» ma'nolarining tarjimasiva tafsiri. – T., 2004.
2. Muxtasar. – T.: «Cho'lpon» nashriyoti, 1994.
3. Islomda ijara va muzoraba. – T.: Movarounnahr, 2005.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. hadis va hayot.
5. Ahmadjon Bobomurod «Faroiz ilmi» Mavrounnahr nashriyoti T-2005 yil
6. Nodir Nabijon o'Hli «halol tijorat sirlari» Mavrounnahr nashriyoti
7. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Savdo, ziroat va vaqf”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Faroiz va vasiyatlar”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
9. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Zakot”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
10. Muxtasar. – T.: Cho'lpon nashriyoti, 1994

#### **Arab tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ali ibn Muhammad Sulton al-Ma'ruf bil qori. An-nihoya muxtasar ul-viqoya. – qozon, 1998.
2. Burhoniddin MarHiloniy. hidoya. – Mustafoi nashriyoti.
3. Shayx Ahmad Mullajiyvan ibn Abu Sa'id ibn Ubaydulloh. Nurul anvor. – Yusufiy nashriyoti, 1319.
4. Abdurahmon ibn Muhammad. Al-fiqh ala mazohibil arba'. – qohira, 1997.
5. Mu'malatul bunuk va ahkamuhul shar'iyya. – qohira, 2001.
6. Vahba Zuxayliy. Al-Fiqhul islamiy va adillatuh.
7. Maxmud ibn Axmad al-Ayniy «Al-binoya fi sharxil qidoya», Bayrut.
8. Muxammad Okif «At-tasxiluz-zaruriy li masailil quduriy», Madina,-1994
9. Abduraxmon ibn Muxammad «Al-fiqx ala mazoxibil arba'», qoxira,-1997

#### **Ingliz tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Al-Darir, Siddiq Muhammad al-Amin (1997), Al-Gharar in Contracts and its Effect on Contemporary Transactions, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.
2. Saleh, Nabil (1992), Unlawful Gains and Legitimate Profits in Islamic Law, UK:Graham & Trotman, pp. 63-64.
3. Chapra, M. Umer and Tariqullah Khan (2000), Regulation and Supervision of Islamic Banks, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.
4. DeLorenzo, Y.T. (2000), Shari`ah Supervision of Islamic Mutual Funds, Proceedings of the 4th Harvard Forum on Islamic Finance, USA.

**Internet sahifalari:**

[www.islam.ru](http://www.islam.ru)

[www.IDB.com](http://www.IDB.com)

[www.COIER.com](http://www.COIER.com)

[www.KAAL.com](http://www.KAAL.com)

[www.IERC.com](http://www.IERC.com)

[www.Islam.uz](http://www.Islam.uz)

[www.Islam.com](http://www.Islam.com)

#### **4-mavzu: Islomda savdo-sotiq masalalari**

##### **Reja:**

1. Savdo-sotiq asosi va uning shartlari
2. Sahih savdo, uning mohiyati va turlari
3. Tovarning ayirboshlashga va miqdoriga ko'ra savdo turlari

**1.** Arab tilidagi «bay'» so'zi o'zbek tilida «savdo-sotiq» so'ziga to'g'ri keladi. Luhatda «bay'» so'zi bir narsani boshqa bir narsaga ayirboshlash ma'nosini anglatadi. «Bay'» so'zi qarama-qarshi otlar turkumiga kiradi, ya'ni berilgan so'z o'zining qarama-qarshi ma'nosiga ham ishlatiladi.

hanafiy mazhabiga ko'ra, uning istilohiy ma'nosi: sotuvchi va oluvchi kelishgan holda tovarni tovar bilan yoki pulga ayirboshlashdir. Savdo o'tgan zamonga dalolat qiluvchi lafz yordamida taklif va qabul bilan yoki ayirboshlanadigan tovarni bir-biriga berishlik bilan bog'lanadi.

Taklif – bu ikki tomonning biri, birinchi bo'lib, sotish yoki sotib olish roziligini bildirishidir. Sotuvchi «sotdim» yoki xaridor «sotib oldim» deydi.

Savdoning rukni: uning muhim talabi sotuvchi tomonidan taklif, oluvchi tomonidan istakdir. Chunki, taklif va istak har ikkisinin o'sha savdoga rozi ekanligi dalolat qiladi. Shuningdek, taklif va istak ma'nosidagi boshqa so'zlar ham bo'lishi mumkin.

1 qabul – bu ikki tomonning biri, ikkinchi bo'lib, sotish yoki sotib olish roziligini bildirishi xuddi taklif va qabul shakli.

Oldi-berdi odamlarning urf-odat va an'analariga ko'ra, mol-mulkni ayirboshlash orqali rozilikka dalolat qiluvchi har qanday so'z yoki harakat bilan bog'lanadi.

hanafiy mazhabiga ko'ra, bay'ning bog'lanishi ikki lafz bilan savdo niyati shartisiz ham o'tgan zamon shaklida amalga oshadi. Masalan, sotdim va sotib oldim lafzlari kabi so'zlar bilan.

Ikki lafz bilan savdo niyati sharti ila bo'lishi mumkin. Bu hozirgi muzori' shakli. Masalan, sotaman va olaman shaklida. Bu shakl hozirgi yoki kelasi zamonga dalolat qilishi mumkin. hozir savdo qilish niyati esa bu ehtimolga barham beradi.

Uchta lafz bilan bo'lishi mumkin. Bunda lafzlar so'roq va buyruq shakllarida istifoda etiladi. Masalan, oluvchi sotuvchiga «buni menga sotasanmi (birinchi lafz)», deydi, sotuvchi, sotdim (ikkinchi lafz), desa, oluvchi yana: oldim, deyishi, sotuvchi sotdim deb uchinchi lafzni ishlatishi bilan amalga oshadi.

Bir-biriga berish orqali bog'lanadigan savdo.

Ayirboshlanadigan tovarlarni bir-biriga berish bilan bog'lanadigan savdoda (bay' al-muHatot yoki bay' al-murovodot) ikki tomon beriladigan tovar va to'lanadigan pulga rozi bo'lib, taklif va qabulsiz uni bir-biriga berishadi. Bunday holatda, oldi-berdi biror bir imo-ishorasiz va gap so'zsiz bo'ladi.

hanafiy, Molikiy va hanbaliy mazhablarida, agar bunday oldi-berdi har ikkala tomonning xohishini to'la ifodalab va o'zaro roziliklarini odatga ko'ra bildiradigan bo'lsa, bay' mu'atot joiz sanaladi.

Chunki, odamlar asrlar davomida bunday savdo turi bilan bozorlarda muomala qilib keladi. hali biror kishi uning inkorligi haqida rivoyat naql qilmadi. Uning halolligi ulamolar ijmo'si bilan sobit bo'lgan.

Taklif va qabulning xususiyatlari.

Taklif va qabul ikki tomonning biri hozir bo'lmay turib kuchga kirmaydi. Ikki tomonning har biri taklif va qabul bo'lgandan keyin bitim qilingan o'sha joyda lafzini qaytib olishi joizmi yoki yo'qmi degan savolga hanafiy va Molikiy olimlar shunday javob beradilar:

Savdo bitimi taklif va qabul bilan kat'iy bog'lanadi. Yana bir qo'shimcha majlis ixtiyorigi hojat yo'q va lafz ustun, deyiladi. Umar (r.a.)dan: rivoyat qilingan hadisni sharifda PayHambar (s.a.v.): "Savdo – bu kelishuv yoki ixtiyor", deganlar. Ushbu hadisni bular dalil qilishadi. Imom Shofi'iy va Imom hanbaliyning «Modomiki ikki tomon tarqalmasa, ular ixtiyorga hakimdirlar», deb dalil qilib keltirgan hadisida, Imom Shofi'iy haqiqiy tan va badanda tarqalishni tushunsalar, Imom A'zam (r.a.) qavlda tarqalishni tushunganlar. Shu bilan, Imom Shofi'iy keltirgan dalil. hanafiy olimlarning va Imom A'zam (r.a.)ning dalillari bir-biridan farqlanadi. Ba'zilar esa Niso surasi 29-oyatni, ya'ni «Magar o'zaro rozilik ila tijorat bo'lsa, mayli» hamda Moida surasi 1-oyati, ya'ni «Bitimlar (ahdlar)ga vafo qilingiz» oyatlarining dalil sifatida ko'rsatib o'tadilar. Ba'zi hanafiy mazhabi olimlari esa, Imom Shofi'iy dalil qilib keltirgan hadisni mansuh (amali to'xtagan) ham deganlar.

Savdo-sotiq shartlari. Savdo-sotiq bitimida 4 ta shart topilishi kerak. Ular quyidagilar:

bitimning bog'lanish (in'iqod) sharti;

bitimning sahih bo'lish (sihha) sharti;

bitimni amalga oshirish (nafaz) sharti;

yakuniy bog'lanish zaruriyati (luzum).



Umuman olganda, bu shartlarning savdo bitimida mavjud bo'lishidan maqsad va buning hikmati – odamlar o'rtasida nizo, janjal kelib chiqishining oldini olish hamda ikki tomon manfaatlarini himoya qilishdir. Agar birinchi shartdan bittasi topilmasa, savdo bitimi botil (bekor) bo'ladi. Agar ikkinchi shartdan bittasigina bo'lmasa, savdo bitimi fosid bo'ladi. Agar uchinchi shartdan bittasi mavjud bo'lmasa, savdo bitimi ijozat, ruxsatga boHliq bo'lib qoladi. Bu shart tovar egaligiga boHliq bo'lgani uchun, egalik boshqa birovga o'tishi ijozat qilinishi kerak. Agar to'rtinchi shart bo'lmasa, savdo bitimini bog'lash yoki bekor qilish ikki tomon birining ixtiyoriga qoldiriladi.

Yuqorida aytib o'tilgan to'rtta shart yana boshqa shartlarga bo'linib ketadi va jami 23 ta shart hosil bo'ladi, bu Imom A'zam (r.a.) mazhabidagi holat. Imom Molik va Imom hanbal mazhablarida 11 tadan, Imom Shofi'iy mazhabida esa 22 ta shart mavjud.

Savdoning sharti: Sotuvchi va xarid qiluvchi sotish yoki sotib olish huquqiga ega bo'lgan, aqlli, baloHat yoshiga etgan, hur, sotuvchi sotayotgan mahsulotida, oluvchi berayotgan pulida egador shaxslar bo'lishi lozim. Aqlsiz baloHat yoshiga etmagan, foyda-zararni tushunmaydigan bo'lsa, aldanib qolishi mumkin bo'lgani uchun ularning savdo qilishi durust emas. Yana hur bo'lishi talab etiladi. Chunki qullar narsalarga egador emaslar. Savdo o'z o'rnida, ya'ni qiymatga ega bo'lgan va mol deb e'tirof etilgan mahsulotlar ustida bo'lishi kerak. Savdodan maqsad qiymatga ega bo'lgan va foydali molni o'zaro tomonlar bir-biriga mulk qilib berishdir. Shuning uchun mol, deb e'tirof etilmagan narsalar ustida savdo qilish ham e'tiborsizdir.

Yuqorida zikr qilingan qonun-qoidalarga rioya etilganda savdo-sotiqda shar'iy hukm paydo bo'ladi. Uning hukmi sotilgan mahsulotda oluvchi uchun egalikning sobit bo'lishi, sotuvchi uchun esa, pulda egalikning hosil bo'lishidir. qachonki, yuzma-yuz turib savdo qilingan bo'lsa, ikkinchi tomonning roziligisiz ulardan biri mazkur savdoni buza olmaydi .

Savdo-sotiq bitimining birinchi sharti hisoblangan bog'lanish sharti (in'iqod) ham o'z navbatida quyidagi 4 turga bo'linadi:

1.1. Bitimni amalga oshiruvchi kelishuvchilar uchun shartlar. Bular ham 2 turga bo'linadi:

1.1.1. Kelishuvchilar aqli raso, muomalaga layoqatli, ya'ni haq va nohaqni ajratuvchi bo'lishi kerak. Aqli zaifning savdosi durust emas. Bizning mazhabda baloHatga etgan-etmaganligi shart emas.

Etti yoshga to'lgan haq va nohaqni ajrata oladigan kichkina bolaning tasarrufi, ya'ni mustaqil ish yuritishi durustdir. Umuman, hanafiy mazhabida bunday bolaning tasarrufi 3 qism bo'ladi:

Foydali tasarruf. Masalan, o'tin yilish, pichan o'rish, ov ovlash, sovha va sadaqalar olish va boshqalar. Bunday tasarruf kichkina boladan sodir bo'lsa, ota-onasining ruxsatisiz ham to'g'ri hisoblanadi, chunki unda umummanfaat mavjud.

Zararli tasarruf. Masalan, taloq qo'yish, sovha va sadaqa berish, qarz berish va boshqalar. Bunday tasarruf, agar unga ota-onasi ruxsat bergan bo'lsa-da, kichkina bolaga mumkin emas. Chunki, unda zarar bo'lganligi uchun ota-ona bunday tasarrufga ijozat berish huquqiga ega emas.

Zarar va foyda orasidagi tasarruf. Masalan, oldi-berdi, ijaraga berish, ijaraga olish, uylanish, ziroat, musoqot, sherikchilik va boshqalar. Bunday tasarruf kichkina bola uchun ota-onasining ruxsati va ijozati bilan to'g'ri bo'ladi.

1.1.2. Savdo muomalasiga kirishuvchilar 2 ta yoki undan ko'p bo'lishlari shart. Bir shaxs o'zi bilan savdo bitimini bog'lamaydi, chunki taklif bir tomondan, qabul esa ikkinchi tomondan bo'lishi kerak. Ammo ota-ona, vasiy, qozi, ikki tomon elchisi (vositachi) – bularning har biri ham sotuvchi, ham oluvi vazifasini bajarishlari mumkin.

1.2. Tuzilayotgan savdo bitim shaklining shartlari 3 ta, ular:

1.2.1. Oldi-berdiga dalolat qiluvchi so'zlarning bir-biriga eshittirilishi, ya'ni ikki tomonning har biri bir-biriga «sotdim» va «oldim» lafzini eshittirib aytishi lozim.

1.2.2. Taklif va qabulning muvofiq kelishi, ya'ni sotuvchi taklif qilgan narsani oluvchi qabul qilishi yoki oluvchi taklif qilgan narsani sotuvchi qabul qilishi shart. Masalan, sotuvchi sotdim, desa, oluvchi oldim, deyishi yoki oluvchi oldim, desa, sotuvchi sotdim, deyishi shart. Agar taklif va qabul qarama-qarshi bo'lsa, (savdo) bog'lanmaydi. Masalan, sotuvchi sotdim, desa-yu, oluvchi olmadim, desa yoki oluvchi oldim desa-yu, sotuvchi sotmadim, desa savdo bog'lanmaydi.

1.2.3. Bitim joyining birligi, ya'ni taklif va qabul bir joyda bo'lishi kerak, aks holda (savdo) bog'lanmaydi. Savdo bitimi amalga oshayotgan paytda ikki tomonning biri qabul qilinishidan oldin turib ketsa yoki boshqa ish bilan shugullanib ketsa, savdo bog'lanmaydi. qabulda shoshma-shosharlik shart emas, chunki qabul qiluvchi kishi bir oz o'ylab olishi kerak.

1.3. Savdoda kelishiladigan tovar (mol) shartlari 5 ta:

1.3.1. Sotiladigan tovar nafli bo'lishi, ya'ni odatda undan foydalanish mumkin bo'lishi kerak. O'limtik va bir don buHdoy kabi arzimas mollar (tovar) savdosi durust emas, chunki bular mol hisoblanmaydi.

1.3.2. Sotiladigan tovar nafli bo'lishi, ya'ni shariatda undan foydalanish durust bo'lishi kerak. Xamr va cho'chqa savdosi joiz emas, chunki shariatda bu ikkalasidan foydalanishga ruxsat yo'q. Bu ikki shart (1.3.1. va 1.3.2.)larni ba'zi olimlar bitta shart deb ko'rsatadi.

1.3.3. Sotiladigan tovar ma'lum kishining egaligida bo'lishi kerak. Biror bir kishining yoki o'zining egaligida bo'lmagan tovarning savdosi durust emas. Masalan, erdan biror narsa topib, uning egasini surishtirmay sotib yuborish aslo mumkin emas.

1.3.4. Bitim tuzilayotgan paytda sotiladigan tovar mavjud bo'lishi shart. O'zi yo'q narsani sotish durus emas. Masalan, tuya bo'taloHining bo'taloHini sotish durust emas. Yo'q bo'lish xavfi va bor bo'lish ehtimoli bor narsani sotish ham to'Hri emas. Masalan, hayvon qornidagi bolasini, sigir elinidagi sutni sotish mumkin emas. Chunki, bunday narsalar bo'lishi ham bo'lmasligi ehtimolligi bor. Mabodo bo'lmay qolsa, bu narsa ikki tomonning janjallashuviga olib kelishi mumkin.

1.3.5. Bitim paytida sotuvchi sotayotgan narsasini xaridor qo'lga topshirishga qodir bo'lishi shart. Masalan, suvda suzib yurgan baliqni, havoda uchib yurgan qushni sotdim deb bo'lmaydi.

1.4. Savdoda badal sharti bitta.

Sotilayotgan tovar evaziga to'lov sifatida beriladigan pul yoki tovar qiymatga ega bo'lgan mol bo'lishi shart. Masalan, aroq, cho'chqa yoki amalda to'xtagan pul birligi kabi qiymatga ega bo'lmagan narsani to'lov sifatida berib, savdoni amalga oshirish durust hisoblanmaydi. Savdo botil bo'ladi.

## **2. Islom dinida savdoning ahamiyati va tutgan o'rni g'oyat beqiyosdir.**

Islom huquqida esa savdo shar'iy ahd kelishuv bo'lib, qur'oni karim va sunnat sharifda hamda aqliy dalillar bilan sobit bo'lgan. Alloh taolo qur'oni karimda: «Alloh savdoni halol qildi» deydi (Baqara, 275-oyat). PayHambarimizga risola kelganlarida ham insonlar savdo qilardi. Rasululloh (s.a.v.) ularni qaytarmadilar, balki o'zlari bevosita va bilvosita savdo bilan shuHullandilar. Savdo-sotiqning shar'iy ekanligiga ulamolar ijmo' qilganlar. Aqliy dalillarga keladigan bo'lsak, inson tabiatan mol-dunyoga hirsli qilib yaratilgan. Shuningdek, tarixdan ma'lumki, odamlar o'zaro mol-

mulklarini biror narsa evaziga almashtirganlar. Bu esa azaldan insonlar savdo bilan shuHullanganligidan dalolat beradi.

qiymatli molni sotuvchi va oluvchining o'zaro roziligi bilan almashtirilishi «savdo» deyiladi. Shariat harom qilgan narsalardan tashqari Alloh taolo halol qilgan narsalarning aqlli, hur va baloHat yoshiga etgan kishilar tomonidan o'zaro rozichilik bilan oldi-berdi qilishidir. Agar biron-bir narsa ikki tomon rozilgisiz savdo qilinsa, bu holat savdoga kirmaydi chunki, bu savdoning tarifiga xilofdir.

Ustoz az-Zarqo: «Mol bu odamlar o'rtasidagi qiyamatga ega moddiy narsa», - deb ta'rif beradilar.

Alloh insonlarni bironing molini botil yo'llar bilan eyishdan qaytaradi va qur'onda "Robbingizdan haj mavsumida tijorat bilan fazl tilashingizda sizlarga hech qanday gunoh yo'qdir" deydi. Oyatda zikr qilingan «fazl» so'zi rizq, kasb ma'nosini anglatadi. Odamlar o'rtasida haj marosimida kishi tijorat qilishi mumkin emas degan tushuncha bor edi. Imom Nasafiy rivoyat qiladilarki, bir qavm «hammollik va tojirlik qilgan odamning haji haj bo'lmaydi» degan gapni tarqatganlarida ushbu oyat nozil bo'lgan.

Imom Ahmad qilgan rivoyatda, Abu Umoma aytadilarki, «Abdulloh ibn Umarga biz kiraga ishlaymiz, haj qilsak bo'ladimi deganimizda, u kishi «Baytullohni tavof qilib, Arofatda vuquf qilib, tosh otib, sochingizni oldirasizmiq» - dedi. «Albatta», - dedik. U kishi «Bir odam Rasullohning oldilariga kelib, sen hozir mendan so'ragan narsani so'ragan edi». So'ng Jabroil: "Sizga o'z robbingizdan fazl istashingizda gunoh yo'qdir", - degan oyatni olib tushdi», - dedilar».

Sunnatga keladigan bo'lsak, Al-Bazzor va Al-hokim (r.a.) rivoyatlarida Rufo'a ibn Rofi'dan: bir kishi payHambarimiz (s.a.v.)dan «Yo Rasululloh eng afzal kasb qaysiq - dedilar. PayHambarimiz (s.a.v.) «Kishining o'z qo'li bilan qilgan ishi va har bir yaxshi-halol savdo», - dedilar», - deb javob qaytarganlar.

Musulmonlar ummati savdoning joizligiga ittifoq qilishganlar, chunki savdo odamlarning bir-biri bilan munosabatda bo'lishi, tovar ayriboshlashlari uchun xizmat qiladi.

PayHambarimiz (s.a.v.) aytadilar «Islom dinida o'ziga ham, o'zgalarga ham zarar keltirishlik yo'q» (Imom Ahmad va ibn Mojalar rivoyati).

Sotuvchi va xaridor o'zaro sahii savdo qilishganidan so'ng, biri ikkinchisining rozilgisiz shartnomani buzib yuborsa, tomonlardan biriga zarar keltirishi mumkin. Sotuvchi tomonidan mahsulot asosan ishora bilan sotiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Islom dinida savdo-sotiq ishlarining har bir daqiq nuqtalarigacha e'tibor berilgan va ochiq-oydin aytib o'tilgan. Bularni o'rganib, o'z amaliy hayotimizga tadbiiq qiladigan bo'lsak albatta ijobiiy natijalarga erishishimiz turgan gap. Chunki, tarixdan ma'lumki ota-bobolarmiz shariatni mukammal bilgan va unda ko'rsatilgan har bir hukm-ga amal qilib borish natijasida o'z savdosida katta yutuqlarga erishgan. Shariatda ko'rsatilgan savdoga doir hukmlar vaqtlar o'tishi bilan o'zining amaliy isbotini topgan va ko'rsatilgan har bir muammolar kishilar o'rtasida bo'lib o'tgan.

Savdo odoblari xususida:

Savdoning bir qator odoblari mavjud, jumladan:

Foydada xaddan oshmaslik;

Rostgo'ylik, ya'ni sotilayotgan tovar haqida to'Hri ma'lumot berish, uning aybi yoki kamchiligini ma'lum qilish. PayHambarning (s.a.v.) hadisi shari-flarida: «To'Hri (rostgo'y) savdogar qiyomat kuni payHambarlar, siddiqlar va shahidlar bilan birga bo'ladi» deyilgan.

Saxiylik va olijanoblik, ya'ni sotuvchi tovar narxini imkon qadar ka-maytirishi, oluvchi esa qattiq turib olmasligi va narxni juda tushurib yubormasligi kerak. Jobirdan (r.a.) rivoyat qilingan hadisda: «PayHambar (s.a.v.): Alloh taolo olijanob savdogarni, xaridorni va qarz beruvchini rahm etadi» deyilgan.

Savdoda qasam ichishdan o'zini saqlash. Savdoda Allohga mutlaqo qasam ichmaslik mustahabdir. Abu hurayradan (r.a.) rivoyat qilingan hadisda: «PayHambar (s.a.v.): qasam bilan mol (tovar) sotiladi-yu, ammo undan baraka ham ketadi» deyilgan.

Sadaqa qilib turish, ya'ni savdogar bilmagan holda qasam ichgan bo'lishi, yolHon ishlatgan bo'lishi, aybini berkitgan, narxda tajovuz qilgan bo'lishi mumkin. Ana o'shalarga kafforat sifatida sadaqa qilib turishlik mus-tahabdir. Ibn Hirzadan (r.a.) rivoyat qilingan hadisda: PayHambar (s.a.v.) tijoratchilarga qarata: «Ey, tojirlar! Savdoda shaytonning bo'lishi va biz gunoh ish qilib qo'yishimiz tayin. Shuning uchun savdoingizda kafforat uchun sadaqa berib turingiz» dedilar.

qarzni yozib qo'yish va guvohni keltirish, ya'ni muddatga berilgan qarz-ning miqdorini va bitimini yozib qo'yish, guvoh keltirish mustahab hisoblanadi. Alloh taolo: «Ey, iymon keltirganlar! Ma'lum muddatga qarz oldi-berdi qilgan vaqtingizda, uni yozib qo'ying... Erkaklaringizdan ikki kishini guvoh qiling».

PayHambarimiz (s.a.v.): «qo'rqoq savdogar mahrum bo'lur, jasur savdogar rizqli bo'lur» deganlar.

3. Ma'lumki, yuqorida tovarga narx belgilanishiga ko'ra savdo turlarini ko'rib o'tdik. quyida esa tovarni ayriboshlashga ko'ra turlarini ko'rib chiqamiz. Tovarni ayriboshlashga ko'ra savdo 4 turga bo'linadi:

- 1) Muqoyada (barter) – tovarning boshqa bir tovarga ayri-boshlanishidir.
- 2) Mutlaq – tovarni pulga, pulni tovarga ayriboshlashdir.
- 3) Sarf, pul almashtirish – pulni pulga ayriboshlash savdosi.

Muqoyada va mutlaq savdoda qabz, ya'ni tovar yoki pulni xaridorning qo'lga topshirish shart emas. Sarf va salam savdolarida qo'lga topshirish shart. Sarfda ikkala badalni bir-biriga topshirish, salamda ikkalasining birini (pulni) topshirish shart.

Pul almashtirish (sarf) shariatda joiz, payHambar (s.a.v.) bir jinsda bo'lgan pullarni barobariga almashtirish va bir jinsda bo'lmagan pullarni barobar yoki ortiHiga almashtirishga ruxsat berganlar.

"Sarf" so'zi luHatda o'tkazmoq, qaytarmoq, sarflamoq, ziyoda kabi ma'nolarda ishlatiladi.

Shariat istelohida tomonlarning mollari oltin va kumush kabi doimiy qiymatga ega bo'lgan narsalarning savdosi sarf savdosi hisoblanadi. Ushbu savdoga bugungi kunda insonlar qo'lida muomalada bo'lgan qoHoz pullar (so'm, dollar, evro va hokazolarning) savdosi ham kiradi. Sarf savdosida faqatgina tengma-teng va naqd savdo qilish joizdir.

Ma'lumki, bugungi kunda muomalada yuritilayotgan pullar asosan qoHoz jinsida bo'lib, qadimiy davrdagi pullardan farq qiladi. Shunga qaramasdan faqih ulamolarimiz muomalada iste'mol qilinayotgan pullarda ham sarf savdosi joiz ekanligini o'z kitoblarida bayon qilganlar. Pulni pulga almashtirish vaqtida tomonlar yuqoridagi qoidaga rioya etishlari kerak. Oldi-berdi qilinayotgan pullar jinsdosh bo'lmaganida tengma-teng bo'lishi shart qilinmaydi, ya'ni, bir kishi so'mni dollarga almashtirayotganida birini orttirib savdo qilishi shar'an joiz bo'ladi. Lekin, savdo kilingan joyda va o'sha vaqtning o'zida ikki tomon bir-biriga pulni topshirishlari shart. Aks holda sarf savdosi bekor bo'ladi.

Sarf savdosini jamiyatimizning har bir jabhasida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, davlat bilan shaxs, firma va kompaniyalar, korxona va tashkilotlar kabi doimiy ravishda o'zaro moliyaviy munosabatlarni yurituvchilar kundalik hayotida bunday savdo bilan shuHullanadilar. Shuning uchun

ham musulmonlar orasidan bu masalani yaxshiroq o'rganish ehtiyoji mavjud. Chunki, o'zgalar haqqiga rioya etish, har qanday moliyaviy muomalada hiyonat qilmaslik, Alloh taoloning (j.j.) buyruHidir.

Sarf savdoning quyidagi shartlari mavjud:

Ikki tomon tarqalmay, pullar bir-biriga topshirilishi kerak. Aks holda, riboi nasiya bo'lish xavfi tuHiladi. PayHambar (s.a.v.): oltin va kumush bir xil o'lchov va miqdorda ayriboshlanadi, deganlar va yana: Oltin va kumushni o'sha zahoti berish sharti bilan sotib olinglar, deganlar. hanafiy mazhabiga ko'ra, agar pullarni bir-biriga topshirmay turib, tarqalishsalar, savdo fosid bo'ladi. Boshqa mazhabda botil bo'ladi.

Jinsi bir xil bo'lgan pullar barobariga almashtiriladi. Ikki tomonning birining puli ortiq bo'lishi joiz emas, chunki u riboga aylanib qoladi.

Sarf bitimida xiyori shart, ya'ni "agar bunday bo'lsa", deb shart qo'yishlik durust emas. Chunki, pullar bir-biriga topshirilgandan keyin bitim to'liq tugaydi.

Sarf bitimi qisqa vaqt ichida amalga oshirilishi kerak, orada hech qanday bo'sh muddat bo'lmasligi kerak, aks holda savdo fosid bo'ladi.

4) Salam, fyuchers – pulni oldindan berib, tovar sotib olishdir.

Imom quduriyning ta'rifiga ko'ra, "salam" deb ikki ayriboshlanadigan narsaning birini avval berishga aytiladi. Ammo islom ta'limoti avval pulni, so'ngra sotiladigan narsani berishga buyurdi. Salam bitimi aniq salam lafzi bilan va sotiladigan narsaning jinsi, sifati va miqdori ma'lum bo'lish sharti bilan bog'lanadi.

Salam bitimining tarixiga nazar soladigan bo'lsak, u mudoraba kabi islomdan oldingi davrga borib taqalib, Yasrib qabilasi shuHullanadigan muomala turi edi. Ibn Abbosdan (r.a.) Imom Buxoriy rivoyat qiladi: "Rasululloh (s.a.v.) Madinaga kelganlarida odamlar oldindan pulini berib, meva (xurmo) sotib olmoqchi bo'lsa, o'lchanadiganini o'lchab, tortiladiganini tortib, muddatini belgilab olsin!" - dedilar.

Shofi'iy ma'habiga ko'ra, ushbu bitimda salam lafzi ishlatilishi shart. hanafiy mazhabida savdo lafzi bilan ham salam bitimi bog'lanaveradi.

Ibn qayyum: Salamda aldanish, yolHon yo'q deydi, chunki tovarning sifati, belgilangan vaqtda tovarni xaridorga topshirish kafolati va o'sha topshirishning imkoni borligi aldanib qolishni ketkazadi yoki uni kamaytiradi. Salam bitimi yolHon savdodan yiroqdir. YolHon savdo – bu borligi yoki yo'qligi ma'lum bo'lmagan yo'q narsa savdosidir. Bunda xaridorning aldanib qolish ehtimoli ko'proq. Salam bitimi, deydi Ibn Taymiya sotuvchi

sotiladigan narsa bilan, sotib oluvchi (xaridor) pul bilan ta'minlashga qodir bo'lgandagina juda qo'l keladi va ikkalasiga ham foyda keltiradi.

Jumhur ulamolar: salam bitimida yolHon aralashadi, deydilar, chunki oluvchi tovarni bitim tuzilayotgan paytda ko'rmaydi, tekshira olmaydi ham. Lekin zarurat uchun, ya'ni odamlarga engillik yaratish, ularni qiyin ahvoldan chiqarish uchun salam bitimi shariatda ruxsat etiladi. Chunki, oluvchiga shoshilinch bo'lmasa ham tovar kerak, sotuvchiga tovari pishmay pul kerak bo'lishi mumkin.

Mana shuning uchun yolHonni kamaytirish maqsadida islom salam bitimida o'z shartlarni qo'ydi, jumladan, tovarning jinsi, sifati, miqdori, muddatini belgiladi. Bitim imzolangandan so'ng sotuvchi oluvchiga kelishilgan pulni kechiktirmay o'sha majlisda to'liq berishni, sotuvchi oluvchiga pishgan tovarni zudlik bilan topshirishi shart.

Shuningdek, bitim tuzilgandan so'ng topshirish vaqtida sotuvchi tovar pulini oluvchiga qaytarib berishi to'Hri emas.

Abu hanifaning fikricha, agar pulning bir qismi sotuvchiga berilgan bo'lsa, o'sha berilgan pul barobaridagi tovarda salam bitimi bog'lanib, qolganida bekor bo'ladi. Shofe'iy va Ahmad Ibn hanballarning aytishicha, bular bitta bitim, madomiki pulning barchasi berilmas ekan, bitimning barchasi bekor bo'ladi.

Ko'pchilik faqihlar nazdida qarzdagi garov joiz bo'lgani kabi, salamda ham joizdir.

Salamda sotiladigan mahsulotning vazni, miqdori ma'lum bo'lishi shart. O'lchab yoki sanab beriladigan narsaning sifati va ko'rinishi belgilangan shartga ko'ra bo'lishi lozim. O'ram o'tinni salam qilish durust emas, chunki undagi aniq o'lchovi yoki miqdorini bilish mumkin emas. Ammo kilolab o'lchab salam qilish mumkin. Ma'lum adad Hisht yoki tuxumning sifatini bayon etish sharti bilan salam qilish joizdir.

Meva yoki xurmo daraxtining mevasi tugmaguncha salam qilish durust emas. Ibn Moja rivoyatida: bir kishi mevasi tugmay turib bir xurmo boHini salam qildi. O'sha yili boHdagi biron bir xurmo daraxti meva bermadi. Oluvchi: mevasi tukkunga qadar meniki dedi. Sotuvchi: men bu yilning xurmosinigina berdim, dedi. Ikkalasi Rasululloh (s.a.v.) oldilariga xusumat qilib keldilar. Rasululloh (s.a.v.) sotuvchiga: xurmoingdan biron narsa oldimi, deb so'radilar. U yo'q deb javob qaytardi. Rasululloh (s.a.v.): unda molingni nima bilan halollaysan, deb so'radilar. U kishi: mana shu yili



boHdan olgan mevani beraman, bo'ldi, dedi. Rasululloh (s.a.v.): xurmon-ing mevasi tugmay turib, uni salam qilmanglar dedilar.

hayvonning dumbasi yoki yoHining oHirligida salam qilishning joizligida ixtilof yo'q. Ammo hayvonning o'zida salam qilish masalasida ixtilof bor. hanafiy mazhabiga ko'ra, hayvon har qanday bo'lmasin, unda salam joiz emas. Al-hokim rivoyatida, Ibn Abbos (r.a.)dan: PayHambar (s.a.v.) hayvonda salam qilishdan qaytardilar. hayvonlarning har biri bir-biridan ajralib turadi. Bu esa ikki tomonga nizo solib qo'yishi mumkin.

Abu hanifa suyak aralash go'shtda salam joiz emas, chunki go'shtning semiz oriqligi, suyagi ko'p ozligini bilish qiyin. Shuningdek, suyaksiz go'shtda ham salam joiz emas. Chunki, bunda go'shtning semiz oriqligini bilish qiyindir. Imom Yusuf, Imom Muhammad va boshqa mazhab vakil-lari: go'shtning aniq sifatlarini aytish sharti bilan salam qilish joiz dedilar.

Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida tovarning miqdoriga ko'ra savdo ikki turga, ya'ni chakana va ulgurji savdoga bo'linadi. Islom iqtisodiyoti ta'limotida ham savdo tovarning miqdoriga ko'ra ikkiga bo'linadi:

jazaf, ulgurji savdo

tajzi'a, chakana savdo

Ulgurji savdo hozirgi paytda kundalik hayotimizda ko'p uchraydigan muommalardan biridir. Ulgurji savdo deb tovarni ko'rib, uni o'lchamay, tortmay, sanamay taxmin bilan sotishga aytiladi.

Ulgurji savdoning shar'iy qonuniyligi borasida payHambarimiz (s.a.v.)ning quyidagi hadisleri vorid bo'lgan. Imom Muslim va Nasoiy rivoyatlarida Jobir (r.a.)dan: "PayHambar (s.a.v.) miqdori noma'lum bo'lgan xurmoni miqdori ma'lum bo'lgan xurmoga ko'tarasiga bermanglar", dedilar. Bun-day savdo harom, chunki ribo bo'lish ehtimolidan holi emas. Bundan shuni tushunish mumkinki, xurmoni pul yoki xurmodan boshqa jinsdagi tovarga ko'tarasiga sotish joizdir.

Imom Termiziy va Ibn Mojadan boshqa muhaddislar rivoyatida, Ibn Umar (r.a.)dan: "Sahobalar bozorning to'rida oziq-ovqatni ko'tara sotar edilar, Rasululloh (s.a.v.) bo'lak erga olib bormay sotishdan qaytardilar". Ushbu hadis payHambarning (s.a.v.) sahobalar ko'tara sotish savdo-sotiqlariga iqror bo'lganliklari (ma'qul ko'rganliklari)ga dalil. Ammo payHambar (s.a.v.) oziq-ovqatni qo'liga olmay hamda pulini to'lamay turib, sotishdan qaytardilar.

Jazofning (ulgurchi savdo) quyidagi shartlari mavjud:

bitim tuzish paytida yoki undan oldin tovarni ko'rish mumkin bo'lishi;

savdo har bir ko'tara sotiladigan tovarida bo'lishi. Abu hanifa (r.a.) jazaf o'lchanadigan va tortiladigan narsalardan durust bo'ladi, deydi. Imom Abu Yusuf va Imom Muhammad (r.a) bundan tashqari metrlab o'lchanadigan (kiyim-kechak, er) miqdori bir-biriga yaqin sanaladigan (chorva) tovarlarda ham bo'laveradi deyдилar. Fatvo shunga bo'lgan, chunki bu odamlarga engilliklar tuHdiradi.

o'lchami noma'lum bo'lgan idish bilan narsa sotishda, idish kattalashib yoki kichrayib ketmaydigan bo'lishi shart. Masalan, idish yoHochdan yoki temirdan bo'lishi kerak.

Savdo bitimini buzish, iqola

“Iqola” so'zining luHaviy ma'nosi “qaytarish” bo'lib, shariatda ikki tomon roziligi bilan savdo bitimini bekor qilish, uzish ma'nolarini bildiradi. Agar savdo sahih, ya'ni xiyordan holi bo'lsa-yu, ikki tomon uni bekor qilishni xohlasalar, uni iqola yo'li bilan amalga oshiradilar. Iqola nafaqat joiz, balki savobli hamdir. U mustahab amaldir. Imom Bayhaqiy rivoyatida, Abu hurayra (r.a.)dan: PayHambar (s.a.v.): “Kimki pushaymon bo'lib, o'z bayotini iqola qilsa qiyomat kuni Alloh uning xatosini avf etadi”, deganlar. Yana bir hadisi sharifda, payHambar (s.a.v.): “Kimki savdoda o'z musulmon birodariga qaytarish qilsa, Alloh uning gunohlarini qiyomat kunida qaytarish qiladi (ya'ni avf etadi)” deganlar (Abu Dovud rivoyati).

Iqolada savdo jarayonida berilgan pul miqdorini aynan qaytarib berish zarur. Ya'ni qaytarib beruvchi tomon molni qaytarib berayotganda savdo jarayonida yozib bergan puldan ko'proq miqdorda pul berishini talab qila olmaydi. Shuningdek, buning aksi ham bo'lishi mumkin, ya'ni, pulni qaytarib beruvchi tomon savdo vaqtida olgan pulidan kamroq pul berishga haqli emas. Pulning yo'qolishi iqolani amalga oshirishga xalaqit bera olmaydi, lekin molning halok bo'lishi iqolani amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.

### **Tayanch iboralar:**

Savdo-sotiq asosi, taklif, qabul, savdo shartlari, bog'lanish sharti, rostguylik, saxiylik, olijjanoblik, qasam ichishlik, qarzni yozib quyish, ehson-sadaqa qilish, bay', axd, mol, qiymatli mol, taklif va istak, aqlli, baloHatga etgan, hur, yuzma-yuz savdo qilish, fazl, muqoyada, mutlaq, sarf, riboi-nasiya, xiyori shart, salam, jazaf, tajzi'a, iqola.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. hanafiy mazhabiga ko'ra savdo-sotiq asosi nima.
2. Taklif va qabulning xususiyati.

3. Savdo-sotiq bitimida nechta shart topilishi kerak.
4. Bog'lanish shartini izohlab bering.
5. Islom ta'limotida savdo odoblariga e'tibor qanday.
6. Imom Molik mazhabida foyda miqdori qanday ko'rsatilgan.
7. Umum Islom qonun-qoidalariga ko'ra savdoda foyda miqdori qanday.
8. Savdo odoblari qaysilar, ularning sanab bering.
9. Savdoda saxiylik odoblari borasida payHambarimiz (s.a.v.) nima deganlarq.
10. Islomda savdo odob-axloqlaridan qasamga e'tibor.
11. qur'onda qarzni yozib qo'yish va adolatli guvoh to'Hrisidagi oyati karimani ayting.
12. Savdoning shar'iy hukmi.
13. Savdoning shar'iyligiga aqliy va tarixiy dalillar.
14. Savdoning ta'rifi.
15. Savdoning rukni.
16. Savdoning sharti.
17. Savdoning aqd ekanligiga dalillar.
18. Savdo shartnomasining bekor qilinishi sabablari.
19. Tovarni ayirboshlashga ko'ra qanday turlari mavjudq Ularni izohlang.
20. Pul almashtirish, ya'ni sarfning shartlarini sanab bering.
21. Salam savdosi qanday xususiyatlarga ega.
22. hanafiy mazhabiga ko'ra salam savdosi qanday amalga oshiriladi.
23. Tovarning miqdoriga ko'ra savdo qaysi turlarga ajratiladi.
24. Islom iqtisodiyoti ta'limotida ulgurji savdoning qanday shartlari mavjud.
25. Iqola nimaq U qanday amalga oshiriladi.

### **O'zbek tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. «qur'oni karim» ma'nolarining tarjimasiva tafsiri. – T., 2004.
2. Islom ziyosi o'zbekim siymosida. – Toshkent, 2005.
3. Muxtasar. – T.: «Cho'lpon» nashriyoti, 1994.
4. Islomda ijara va muzoraba. – T.: Movarounnahr, 2005.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. hadis va hayot.
6. Nodir Nabijon o'Hli. halol tijorat sirlari. – T.: Movarounnahr, 2005.

7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Savdo, ziroat va vaqf”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Faroiz va vasiyatlar”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Zakot”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil

### **Arab tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tafsirul jalolayn. – qohira, 1999.
2. Ali ibn Muhammad Sulton al-Ma'ruf bil qori. An-nihoya muxtasar ul-viqoya. – qozon, 1998.
3. Burhoniddin MarHiloniy. hidoya. – Mustafoid nashriyoti.
4. Shayx Ahmad Mullajiyvan ibn Abu Sa'id ibn Ubaydulloh. Nurul anvor. – Yusufiy nashriyoti, 1319.
5. Mahmud ibn Ahmad al-Ayniy. Al-binoya fi sharhil hidoya. Bayrut.
6. Muhammad Okif. At-tasxiluz-zaruriy li masailil quduriy. – Madina, 1994.
7. Abdurahmon ibn Muhammad. Al-fiqh ala mazohibil arba'. – qohira, 1997.
8. Mu'malatul bunuk va ahkamuhul shar'iyya. – qohira, 2001.
9. Vahba Zuxayliy. Al-Fiqhul islamiy va adillatuh.

### **Ingliz tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Chapra, M. Umer (1985), Towards A Just Monetary System, Leicester, UK: The Islamic Foundation. (1992), Islam and the Economic Challenge, Leicester, UK: The Islamic Foundation.
2. Shefrin, H. and M. Statman (1998), Ethics, Fairness, Efficiency, and Financial Markets, Virginia: The Research Foundation of Institute of Chartered Financial Analysts. Articles
3. Al-Suwailem, Sami (2000), "Towards an Objective Measure of Gharar in Exchange", Islamic Economic Studies, Vol. 7, Nos. 1 & 2, pp. 61-102.
4. Al-Jarhi and Munawar Iqbal (2001), Islamic Banking: Answers to Some Frequently Asked Questions, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.
5. DeLorenzo, Y.T. (2000), Shari'ah Supervision of Islamic Mutual Funds,
6. Proceedings of the 4th Harvard Forum on Islamic Finance, USA

7. Yaquby, Nizam (2000), Participation and Trading in Equities of Companies Which Main Business is Primarily Lawful but Fraught With Some Prohibited Transactions, Proceedings of the 4th Harvard Forum on Islamic Finance, USA.

**Internet sahifalari:**

[www.islam.ru](http://www.islam.ru)

[www.IDB.com](http://www.IDB.com)

[www.COIER.com](http://www.COIER.com)

[www.KAAL.com](http://www.KAAL.com)

[www.IERC.com](http://www.IERC.com)

[www.Islam.uz](http://www.Islam.uz)

## **5-mavzu. Islom iqtisodiyotida moliyaviy tizim**

### **Reja:**

1. Islomda mulk tushunchasi va ahamiyati.
2. Islomda mulkiy munosabatlar va ularning xususiyatlari.
3. Moliyaviy tizim etikasi.

1. Islom musulmon kishi shar'iy yo'llar bilan topgan xususiy mulkini hamda insonlarning o'z xatti-harakatlari bilan bo'liq holda umr o'rtasida boylik xususida yuzaga kelgan tabaqalanishni e'tirof etadi.

Ushbu bandni batafsil o'rganmoqchi bo'lsak, tartib ila har iboraga diqqat bilan e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi.

A) Islom inson uchun mol-dunyo topishga ruxsat bergan shar'iy yo'llar qaysilariq

Islomda mol-dunyo topishning ikki yo'li mavjud: biri – mehnat, ikkinchisi meros. Tabiiyki, mehnat qilgan kishi o'z mehnati mevasini terib oladi. Islom mehnat qilishga undaydi. Qur'onning bir qancha suralarida insonning uluhlovchi oyatlar mavjud. Jumladan (Juma, 10), (Mulk, 15), (qasos, 17). "Alloh mehnat qiluvchi va Allah yo'lida jihad qiluvchilarni barobarlashtiradi", - deyilgan (Muzammil, 20).

Payhambarimiz (s.a.v.): "Dunyoing uchun doim abadiy yashaydigandek mehnat qil, oxirating uchun go'yo ertaga o'lib qoladigandek ibodat qil".

Meros ham mulk manbalaridan biridir. Farzand otasining bir bo'lagi, uning davomchisidir. Shuning uchun islom merosni farz qildi.

Bulardan boshqa mashru' bo'lgan mol-dunyo topish yo'llari mavjud, lekin ular uncha keng tarqalmagan.

Bular – hiba (sovha), vasiyat, topilma.

Hasb (tartib olish) yoki poraxo'rlik kabi noshar'iy yo'llar bilan mol-dunyo topishni to'xtatish Islomning asosiy Hoyalariidan.

B) Islom ushbu oyatlar asosida xususiy mulkni ma'qullaydi. (Ta'hibun, 15), (Baqara, 274). Islomning so'lim tabiatli xususiy mulkni taqazo qiladi (Fajr, 20; Isro, 200; Imron, 14).

Yosh bolaning ham, katta kishining ham xususiy mulkka ehtiyoji mavjud. Islom hayr-ehson dini bo'lib, u ichki his-tuyhularni ehtirom etib, uni rivojlantiradi. Xususiy mulk bor joyda raqobat bo'lib, u jamiyat uchun yaxshilik kelishiga sabab bo'ladi.

V) Xususiy mulkda tafovut bo'lishi borasida quyidagi oyatlar dalil bo'ladi (Naxl, 71; Shuro, 12; Ra'd, 26; Zuxruf, 32). Mol-mulkda tafovut bo'lishi tabiiydir, chunki odamlar mol-dunyo orttirish va uni tasarruf etish

xususida, bir-birlaridan, soʻHliq, kuch, aql va ziyraklikda farqlanadilar. Bularning barchasi odamlarni aql tengligi, soʻHliq barobarligi, farzandlarning soni bir xilligi uchun kurashishi lozim, degan soʻzni keltirib chiqarmaydi. Odamlar oʻzlarining turli saʼy-harakatlari bilan mol-dunyo orttiradi, tabiiyki, bundan turli xil natijalar hosil boʻladi. Islom dini odamlarni ishlashga tarHib etadi. Tavbva, 106; Mulk, 15; Juma, 10 oyati karimalarida shu haqda oyatlar kelgan.

PayHambarimiz (s.a.v.): «Goʻyo abadiy yashaydiganingdek dunyoing uchun ishla ...». Odamlarning ushbu buyruqqa boʻlgan javobi turli xil boʻlishi tabiiydir. Albatta, ularning qilgan saʼy-harakatlari natijasi ham turlicha boʻladi.

G) Boylikda tofovut boʻlishining maʼnosi qashshoq, faqir, toʻq, boy boʻlish degani emas. Boylik va undagi tafovut faqirlikni tag-tubi bilan va toʻliq bartaraf etilgandan keyin boshlanadi. PayHambarimiz (s.a.v.): «Kimda ortiqcha mol boʻlsa, uni mol-dunyosi yoʻq kishiga bersin».

2. Boylikda tafovut maʼnosi mol-mulkni ozchilik yoki oliy tabaqa qoʻlida boʻlishi degani emas. qurʼoni karim ushbu oyati karima bilan bunday holatdan uzoqlashtiradi (Xashr, 7). Mulk bir qoʻldan ikkinchi qoʻlga oʻtib yurishi uchun islom dini imkoniyatlarning teng boʻlishini tartibga soladi.

Xususiy mulk qishloq xoʻjaligi mulki, tijorat mulki, sanoat mulki, qurilish mulki boʻlishi mumkin. Shuningdek, maxsus isteʼmol mulklari (uy-joy, uy jihozlari, mashina va boshqalar) ham boʻladi. Islom ushbu mulk turlarining barchasi xususiy boʻlishi va ularda tafovut boʻlishini toʻHri deb hisoblaydi. Islom mulklarni oʻzining turli qonunlari yordamida saqlaydi. Ularni oʻgʻirlikdan va bekordan-bekor yoʻq boʻlib ketishdan himoya qiladi. Islom oʻgʻrilarga, yoʻltoʻsarlarga va fosid (yomon) ish qiluvchilarga turli xil jazolarni belgilagan (Aʼrof, 74; Moida, 33).

Mulk egasidan molu-dunyo farzandlariga uning vafotidan soʻng shariatda belgilangan tartib boʻyicha meros boʻlib oʻtadi.

Davlatning odamlar mol-mulkiga aralashuvi xususiy mulk shaxs haqqi yoki xalq manfaati bilan roʻbaroʻ kelganda, inson ushbu mulkka davlatning aralashishini joiz deb biladi. Shunda davlat aralashishi Sovet hukumatining faoliyati kabi xususiy mulkni yoʻq qilish bilan emas, balki xususiy mulk bilan islom qonunchiligi asosi boʻlgan manfaat orasini muvofiqlashtirish bilan boʻladi.

Imom Jaʼfar as-Sodiq rivoyat qilishicha bir ansoriy sahobaning boHida bir kishining bir necha xurmo daraxtlari bor edi. Xurmo egasi oʻz xurmolariga

bevaqt kiraverib, boH egasiga qiyinchiliklar tuHdirar edi. BoH egasi Rasululloh (s.a.v.)ga shikoyat qilib keldi. Rasululloh (s.a.v.) xurmo egasiga xurmolarini boH egasiga sotishni yoki ularni boshqa boHdagi xuddi shunday xurmoga almashtirishni, yoki umuman ularni suHurib tashlashni taklif qildi. U kishi bularning barchasini rad etdi. Shunda Rasululloh (s.a.v.) unga qarata: Sen zarar ko'ruvchisan, deb boH egasiga xurmo daraxtlarning barchasini suHurib tashlashga izn berdi.

Bu aralashish – mulk (xususiy mulk) manfaati uchun bo'lgan xolatdagi mulkka aralashishdir.

Ayrim hollarda xususiy mulkka aralashish xalq manfaati uchun ham bo'lishi mumkin. Masalan, jamiyatning manfaati bir kishining eridan yo'l qurish ariq qazdirish bilan hosil bo'ladi.

Davlat xususiy mulkka aralashish paytida holatga ko'ra evaz taklif etishi yoki taklif etmasligi ham mumkin. Yuqorida keltirilgan xurmo qissasida PayHambarimiz (s.a.v.) evaz taklif qildi. Xalq manfaati uchun xususiy mulkni olishda munosib evaz to'lanadi. Agar xususiy mulkka qandaydir shubha paydo bo'lsa, u evazsiz ham tortib olinishi mumkin. «As-siyasa fi t-tafkir al-Islomiy» kitobida bunga juda ko'p misollar keltirilgan. Masalan, Umar ibn Xattob ko'p podshohlarning mulkini evazsiz tortib olganlar, chunki xalifa uni shubhali daromad deb topganlar.

Islom xususiy mulkni va ular o'rtasidagi tafovutni hamda mulkchilik tizimini e'tirof etadi va unga tajovuz etishni inkor qiladi. Feodal tuzumda er egasi erga va u erda ishlayotgan dehqonlarga egalik qilgan bo'lsa, kapitalistik tuzumda zavod va fabrika egalari undagi texnika, uskunalar va unda ishlaydigan ishchilarga egalik qilganlar. Islom bundan yiroq, chunki onasidan hur bo'lib tuHilgan insonni qul qilish, uning ustidan egalik qilish islom dinida taqiqlangan. Molu dunyoni odamlar vosita qilib, insonlar hurriyati, erki yoki rizqlari ustidan hukm yuritish islomga ziddir.

Shu o'rinda payHambarimiz (s.a.v.) «Insonlar 3 narsada sherikdirlar: suv, yaylov va olov» deganlar. Bu hadisni ba'zilar ushbu asosiy 3 ta narsa umumiy ekanligiga dalil qilishadilar. Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, bu umumiylik biz xususiy mulk haqida gapirgan gapimizga teskari bo'lib qoladi-ku, degan fikr paydo bo'lishi mumkin:

Buni quyidagicha tushunish lozim:

quduq suvi, yaylovda yomHirdan keyin unib chiqqan o't-o'lan, o'rmondagi o'tinlarning asl manbasi, xususiy mulkka kirmasdan oldin jamiyat mulki bo'lib hisoblangan. har kim daryoga borib, suv olib kelishi, yaylovga borib



molini boqishi yoki o't o'rib kelishi, o'rmonga borib o'tin yig'ib kelish imkoniyatiga ega bo'lgan. Buning barchasi egasi uchun erkin mulkdir.

Chanqash yoki och qolish kabi zarurat bo'lgan holatda o'limdan saqlab qolish uchun mulk egasi chanqagan kishiga suv, ochga taom berishi lozim bo'ladi. Bu o'sha mulkda sherik bo'lgani yoki egalik qilgani uchun emas, balki boyning mulkida kambaHalning haqqi borligi uchundir.

Barcha mulk Allohning mulki, mulkka egalik qilish ijtimoiy vazifadir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Islom xususiy mulkni tan oladi, va bu tan olish boshqa shaxslarga nisbatan shaxs mulki tushunchasi borligiga dalolat qiladi. Uni zohiriy mulk yoki foydalanish mulki desak ham bo'ladi. Barcha narsaning haqiqiy egasi – u Allohdir. Umar ibn Xattob (r.a.) rivoyat qilishicha: PayHambarimiz (s.a.v.): Barcha mulk Allohning mulki va bandalar Allohning bandalaridir (al-amval li abi Ubayd, 299 bet) va bu haqda quyidagi oyati karimalar mavjud (Moida, 17; Moida, 120; Isro, 111; Luqmon, 20; Josiya, 13; Xadid, 7; Nur, 33).

Allohgga ishonish siyosat va iqtisodga juda boHliq. Barcha saltanat va davlatning haqiqiy manbasi Allohning mulkidir. U yakka-yu yagona va qahhordir. U haqiqiy saltanat egasidir. Undan boshqa ega yo'q. Davlat va qonunning islomiy tushunchasi din qonuni tushunchasidan farq qiladi. Islomda mulkchilik kapitalistik mulkchilik bo'lib belgilanmaydi. Alloh – bu yagona molikdir. Dunyoviy narsalarni tasarruf etish ijtimoiy vazifa hisoblanadi. Mulkning iste'moli doim jamoa maanfatiga qaratilgan bo'ladi. Allohndan boshqa podshoh yo'q. Bu narsa bizni rahbarlikka qattiq yopishib olmaslikka chaqiradi. Alloh nomiga hamma narsani in'om etganligi haqida quyidagi oyatni keltiraylik (Fusilot, 10). Oyatda erdagi barcha mahluqotlarga rizq belgilab qo'yilgani haqida eslatib o'tilgan. Umum xalqqa rizq uchun sa'y-harakat qiluvchi, Allohning fazlidan talab qiluvchilar deganidir. Ma'lum bir mulk bir insonga tegishli degan ma'noni, o'sha inson bu mulkni idora etishda jamiyat tomonidan mas'ul, deb tushunamiz. Islom ta'limoti bo'yicha ijtimoiy vazifani bajarish demakdir. Masalan: aktsiyador kompaniya rahbari aktsiyadorlar tomonidan kompaniyani muayyan dastur asosida boshqariladi. Agar ishni yaxshi qilmasa, rahbar lavozimidan bo'shatiladi. Chunki, islomda sharoitga muvofiq yurmasa mulkka bo'lgan egaligini yo'qotadi va mulk jamiyat qo'liga o'tadi (Niso, 5).

**3.** Islom ulamolari ko'p yillar davomida izlanib Kur'on karimdagi oyatlar va hadislar yordamida islom moliyaviy tizimi asoslarini, qonuniyatlarini va normalarini ishlab chiqqan. Bu qonun-qoidalar esa quyidagilar:

1) Insonlarning shartnomalar tuzishdagi erkinligi;

Islom dini mustaqil holda shartnomalar tuzishga asosiy erkinlikni bergan. Muqaddas Kur'onda shunday deyiladi: "Allox savdoni halol qildi" (Baqara, 275).

Agar kelajakdagi shartnomalarda yuqoridagi etikalarning buzilish hollari bo'lsa, shartnoma tuzilmaydi. har qalay islomda nazoratsiz shartnoma tuzishda erkinlik yo'q. Ya'ni, oldi-sotdi qiladigan tovarlaringiz shariat tomonidan ruxsat etilgan bo'lishi kerak. Masalan, mast qiluvchi ichimliklar va cho'chqa bilan savdo qilish taqiqlangani kabi. Islomda molning (tovar) ta'rifiga alohida e'tibor beriladi. Bunda huquqlar poymol qilinayapti deb o'ylanmaslik kerak.

2) Ribodan holi ekanligi;

har qanday turdagi shartnomalar ribodan holi bo'lishi kerak, Ribo "miqdoriy ortish" degan ma'noni bildiradi.

3) AlHarardan (o'ta noaniqlik) holi bo'lishi;

hamma turdagi shartnomalar o'ta noaniqlikka asoslanmasligi lozim. Kelishib olinmagan shartnomalar ularning buzilishiga olib keladi.

4) Al Kimar va Al Maysir (mehnat qilib topilmagan daromad)dan holi bo'lishi.

qur'oni karim hamda PayHambarimiz (s.a.v.) hadislariga ko'ra har qanday o'yinlardan topilgan daromad va mehnat qilmay turib pul topish taqiqlanadi. Bunday hollardan topilgan daromadning keyingi oqibatlari hisobga olinadi.

5) Narxlar nazorat va boshqaruvdan holi ekanligi.

Narx belgilanishida hech qanday aralashuv bo'lmasligi kerak. Ba'zi bir islom olimlari bu holni islom iqtisodiyotida yo'k deb hisoblasalar, ba'zilari uni ruxsat etilgan deb hisoblaydilar. Bozordagi talab va taklifning o'zgarishiga hech qanday sun'iy boshqaruv aralashmasligi kerak. Islom tizimi narxga ta'sir qilish uchun sun'iy ravishda taklif taqchilligini (ixtikor) yaratganni qoralaydi. O'z o'rnida sun'iy talab taqchilligini yaratish ham islomiy etikaga to'g'ri kelmaydi. Narxni pasaytirish yoki o'zgartirishga bo'lgan harakat "najash" deb ataladi va unga ruxsat berilmaydi.

6) Adolatli narxlarda shartnoma tuzish vakolatnomasi.

Shartnoma ijro etiladigan narx va adolatli narx o'rtasidagi farq "Hubn" termini bilan ifodalanadi. Hubn bo'lishi kelishuvni etikasiz qiladi.

**Tayanch iboralar:**

Maysir, hibo, muboh, ribo, qimar, ixtikor, najash, Hubn, ixtikor.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Moliyaviy munosabatlarning shar'iy asoslari nimalardan iboratq
2. Ribo tushunchasi va taqiqlanish sabablariq
3. Islom iqtisodiyotida qanday moliyaviy etikalar mavjudq
4. Mulk egalarining ma'suliyati to'Hrisida nimalarni bilasiz.

### **O'zbek tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. «qur'oni karim» ma'nolarining tarjimasiva tafsiri. – T., 2004.
2. Islom ziyosi o'zbegin siymosida. – T., 2005.
3. Muxtasar. – T.: Cho'lpon nashriyoti, 1994.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. hadis va hayot.
5. Nodir Nabijon o'Hli. halol tijorat sirlari. – T.: Movarounnahr nashriyoti.
6. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Savdo, ziroat va vaqt”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
7. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Faroiz va vasiyatlar”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Zakot”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil

### **Arab tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ali ibn Muhammad Sulton al-Ma'ruf bil qori. An-nihoya muxtasar ul-viqoya. – qozon, 1998.
2. Burhoniddin MarHiloniy. hidoya. – Mustafoid nashriyoti.
3. Shayx Ahmad Mullajiyvan ibn Abu Sa'id ibn Ubaydulloh. Nurul anvor. – Yusufiy nashriyoti, 1319.
4. Mahmud ibn Ahmad al-Ayniy. Al-binoya fi sharhil hidoya. – Bayrut.
5. Muhammad Okif. At-tasxiluz-zaruriy li masailil quduriy. Madina, 1994.
6. Mu'malatul bunuk va ahkamuhil shar'iyya. – qohira, 2001.
7. Vahba Zuxayliy. Al-Fiqhul islamiy va adillatuh.

### **Ingliz tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Al-Darir, Siddiq Muhammad al-Amin (1997), Al-Gharar in Contracts and its Effect on Contemporary Transactions, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.

2. Chapra, M. Umer (1985), Towards A Just Monetary System, Leicester, UK: The Islamic Foundation. (1992), Islam and the Economic Challenge, Leicester, UK: The Islamic Foundation.
3. Saleh, Nabil (1992), Unlawful Gains and Legitimate Profits in Islamic Law, UK:Graham & Trotman, pp. 63-64.
4. Shefrin, H. and M. Statman (1998), Ethics, Fairness, Efficiency, and Financial Markets, Virginia: The Research Foundation of Institute of Chartered Financial Analysts.
5. Wilson, R. (1985), Islamic Business: Theory and Practice, London: The Economist Publications. Articles
6. Al-Suwailem, Sami (2000), "Towards an Objective Measure of Gharar in Exchange", Islamic Economic Studies, Vol. 7, Nos. 1 & 2, pp. 61-102.
7. El-Gamal, Mahmoud A. (2000), "An Economic Explication of the Prohibition of Riba in Classical Islamic Jurisprudence", in Proceedings of the Third Harvard University Forum on Islamic Finance, Harvard University: Center for Middle Eastern Studies, pp.29-40.
8. Al-Jarhi and Munawar Iqbal (2001), Islamic Banking: Answers to Some Frequently Asked Questions, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.

#### **Internet sahifalari**

1. [www.islam.ru](http://www.islam.ru)
2. [www.IDB.com](http://www.IDB.com)
3. [www.COIER.com](http://www.COIER.com)
4. [www.KAAL.com](http://www.KAAL.com)
5. [www.IERC.com](http://www.IERC.com)
6. [www.Islam.com](http://www.Islam.com)
7. [www.IslamicInvistment.com](http://www.IslamicInvistment.com)
8. [www.IslamicCapital.com](http://www.IslamicCapital.com)
9. [www.IslamicFinancing.com](http://www.IslamicFinancing.com)
10. [www.Halalinvestment.com](http://www.Halalinvestment.com)
11. [www.Huraminvestment.com](http://www.Huraminvestment.com)

## **6-mavzu. Islom iqtisodiyotida kafolat masalasi**

### **Reja:**

1. Kafolat tushunchasi.
2. Kafolatning turlari va amalga oshishi.
3. Kafolat berish durust bo'lmagan shartlar
4. Kafolatga taalluqli oyatlar.

1. Kafil bo'lish islom dinida shuni anglatadiki, ustida haqi yo'q begona kishining yaxshilik yuzasidan so'rash-izlash vaqtida birga javob berish uchun ustida haqi bor kishi bilan bir tarafda turib guvoh bo'lishidir. Sodda-roq qilib aytganda, ikki kishi bir ish yuzasidan birgalashib javob berishlari tushuniladi. har ikki kishining birlashish jarayoni kafil bo'lish deb ataladi. Ammo kafil bo'lish qarz to'lashda sheriklashib qo'shilish emas, ya'ni kafilardan qarz undirilmaydi. Agar qarzdor kishi qarzini to'lay olmasa, qarz oluvchi kafil kishidan qarzni undira olmaydi. Ammo kafil ixtiyori o'zida bo'lgan kishi bor kishi yoki ustida haq bor kishi hisoblanadi. Kafolat islom dinida «zammu zimmatin ila zimmatin» deb ta'rif qilinadi. hozirgi bozor iqtisodida kafil qarzdorning qarzini uzib beradi.

### **2. Kafolatning turlari va amalga oshishi**

Islom dini ahkomlariga ko'ra kafolatning 2 turi mavjud:

«Kafolatun binnafs», ya'ni ustida haq bor kishining o'zini zarur o'ringa topshirishga kafil bo'lmoHi tushuniladi. Ushbu shartnoma «Men sening o'zing uchun kafil bo'ldim», degan so'z bilan tuziladi. Agar boshga kafil bo'ldim desa yoki yuzga kafil bo'ldim desa, barcha a'zoga kafil deb hisoblanadi.

«Kafilun bilmol», ya'ni qarzni kishining moli bilan to'lashga ishonch uchun kafil bo'lishi tushuniladi. Kafilun bilmolda molni topshirishni bo'yniga olib kafil bo'lishlik durustdir. Moli ko'pmi yoki oz ekanligini bilmasdan bo'lsada, agarda olmoqchi kishining qarzi borligi durust bo'lsa kafil bo'lishga shu etadi. «Senga tegadigan mol uchun kafil bo'ldim» deyish bilan kafolatun bilmol ahdi bog'lanadi.

Agarda, men senga Zayddagi tegishili pulga kafilman deb, miqdori noma'lum pulga kafil bo'lsa, so'nggi kun Zaydga isbot qilingunicha pul to'laydi. Ammo qarzning miqdori dalil bilan isbot qilinmasa, ya'ni kafil «Men bilaman Zayd ustida faloncha miqdori edi», desa kafilning so'zi inobatga olinadi. Agarda qarz olmoqchi bo'lgan kishi kafil aytgan narxdan ko'proq narxni aytsa va o'zi isbot qila olmasa, lekin qarzdor kishi uning

so'zini ma'qullasa, kafil o'zi aytgan narxini to'laydi. Undan ortiHini qarzdor kishi to'laydi.

Agarda kafil hibsga olinsa, qarzdor kishini turmaga tashlaydi. qarzni olmoqchi bo'lgan kishiga qarzning bir ozini berib kafilni kafolatdan chiqarmoqchi bo'lishsa, qarzdor kishidan qarzni so'rashni bekor qilib bo'lmaydi.

### **3. Kafolat berish durust bo'lmagan shartlar**

Ba'zan shunday vaziyatlar bo'ladiki, kafolat berish nojoiz bo'ladi. quyida ushbu vaziyatlarni ko'rib chiqamiz:

O'g'irlik, zino, ichkilik va boshqa hadlar va qasos uchun kafil bo'lish durust emas. Chunki, jazolarda birov o'rniga birov turishi mumkin emas.

Sotilgan narsaga sotuvchidan olmasdan avval halok bo'lsa, «o'zil kafil», deb kafil bo'lish durust emas. Chunki, sotilgan narsa sotish vaqtida kelishilgan pul barobarida halok bo'ladi. Sotuvchi kelishilgan pulni olgan bo'lsa qaytarib beradi.

Garovga sotilgan narsa va omonatlar uchun ham kafil bo'lish durust emas, ya'ni garovga oluvchidagi garovni hamda omonat saqllovchidan omonatni o'zim topshiraman deb kafil bo'lish durust emas.

O'lgan kishi uchun kafil bo'lish durust emas. Chunki, bu ustidan tushgan qarzga kafil bo'lish bo'ladi.

Ma'lum miqdor pul to'lab ozod bo'lish uchun xo'jayini bilan shartlashgan qulning badal to'lashi uchun zarur bo'lgan pulni to'lashga kafil bo'lish durust emas.

Molni sotganda muzoribning mol egasiga sotib oluvchi tarafidan pulning topshirilishiga kafil bo'lishi durust emas. Shuningdek, bir molni sotishga vakil qilingan kishining oluvchidan pul topshirilishiga kafil bo'lishi durust emas.

Ikki kishi sherikchilik asosida narsalarni sotganda birisi sherigining ulushi uchun kafil bo'lishi durust emas.

Narsa sotub oluvchidan sotuvchiga pulning to'lanishiga kafil bo'lgan kishining mazkur sotilmish narsani «meniki» deb da'vo qilishi botil.

### **4. Kafolatga taalluqli oyatlar**

Ahzob surasi, 72-oyat

“Biz (bu) omonatni (chin bandalik omonatini) osmonlarga, Erga va toHlar-ga taklif etdik, ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. In-son esa uni o'z zimmasiga oldi. Darhaqiqat, u (o'ziga) zulm qiluvchi va nodondir”.

### **Tayanch iboralar:**

Kafolat, kafil bo'lish, kafolatun binnafs, kafilun bilmol, o'zil kafil, muzorib, taklif, qabul, axd, fazl, muqoyada, mutlaq, sarf.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Kafolat tushunchasi nimadan iborat.
2. Garovga sotilgan narsa va omonatlar uchun kafil bo'lish mumkinmi.
3. Kafolatning turlari, ularning bir-biridan farqli jihatlari qanday.
4. Kafillik qanday holatlarda amalga oshirilmaydi.

### **O'zbek tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. «qur'oni karim» ma'nolarining tarjimasiva tafsiri. – T., 2004.
2. Islom ziyosi o'zbekim siymosida. – T., 2005.
3. Muxtasar. – T.: «Cho'lpon» nashriyoti, 1994.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. hadis va hayot.
5. Nodir Nabijon o'Hli. halol tijorat sirlari. – T.: Movarounnahr.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Savdo, ziroat va vaqf”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Faroiz va vasiyatlar”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Zakot”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil

### **Arab tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tafsirul jalolayn. – qohira, 1999.
2. Ali ibn Muhammad Sulton al-Ma'ruf bil qori. An-nihoya muxtasar ul-viqoya. – qozon, 1998.
3. Mu'malatul bunuk va ahkamuhul shar'iyya. – qohira, 2001.
4. Vahba Zuxayliy. Al-Fiqhul islamiy va adillatuh.
5. Ingliz tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:
6. Al-Darir, Siddiq Muhammad al-Amin (1997), Al-Gharar in Contracts and its Effect on Contemporary Transactions, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.
7. Chapra, M. Umer (1985), Towards A Just Monetary System, Leicester, UK: The Islamic Foundation. (1992), Islam and the Economic Challenge, Leicester, UK: The Islamic Foundation.

8. Saleh, Nabil (1992), Unlawful Gains and Legitimate Profits in Islamic Law, UK:Graham & Trotman, pp. 63-64.
9. Shefrin, H. and M. Statman (1998), Ethics, Fairness, Efficiency, and Financial Markets, Virginia: The Research Foundation of Institute of Chartered Financial Analysts.

**Internet sahifalari:**

1. [www.islam.ru](http://www.islam.ru)
2. [www.IDB.com](http://www.IDB.com)
3. [www.COIER.com](http://www.COIER.com)
4. [www.KAAL.com](http://www.KAAL.com)
5. [www.IERC.com](http://www.IERC.com)
6. [www.Islam.uz](http://www.Islam.uz)



## 7-mavzu. Meros masalasi va uning xususiyatlari

### **Reja:**

1. Meros, uning sabablari va shartlari.
2. Merosni bekor qiluvchi shartlar.
3. Merosxo'rlar va ularning merosdagi ulushlari.

### **1. Meros so'zi arab tilidagi qqq fe'lidan olingan bo'lib quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:**

O'zidan so'ng mol-dunyo qoldiruvchi marhum (Muvvaris), marhumning mol-dunyosiga uning o'limidan so'ng egalik qiluvchi, marhumdan qoladigan mol-dunyo (boylik).

Shu o'rinda merosning o'ziga xos xususiyatlari va sabablarini aytib o'tish lozim.

Meros quyidagi uchta narsaga bog'liq bo'ladi:

Merosning sababi bo'lishligi;

Shartlarning bo'lishligi;

Merosni mann qiluvchi sabab bo'lmasligi.

Merosning 3 ta sababi mavjuddir:

qarindoshchilik;

Er-xotinlik;

hukmiy qarindoshlar.

Masalan: hujjati va qul munosabatlari. Agar qulning hech kimi bo'lmasa uning xo'jayni uning merosxo'ri bo'ladi.

Meros qoldiruvchining o'limi; meros misolida muhim ahamiyatga ega, chunki hanafiy mazhabida o'lim hukmiy va taqdiran bo'ladi.

Meros qoldiruvchi sayohat yoki jangga ketib ikki yil oraliqda qaytib kelmasa hukmiy bo'ladi.

Agar taqdir taqozosi ila vafot etsa, ushbu holatda taqdirdan bo'ladi.

Merosning (vorisning) tirik bo'lishi.

Merosxo'ring bilmoHi lozim.

Demak, meros shartlari uchtaadir.

### **Merosni man qiluvchi shartlar.**

Shaxsda topilgan bir sabab tufayli undan merosxo'rlik hukmining ketishidir. Bu shaxs merosdan mahrum deyiladi.

Merosdan to'suvchi omillar 3 tadir.

1. qul bo'lish, ya'ni dinimizda marhumning mol-mulki uning qullariga taqsimlanmaydi.

2. qotillik. Bir inson merosga tezroq erishish maqsadida qotillik qilsa u shubhasiz ega bo'lishi mumkin bo'lgan mol-mulkdan, ya'ni merosdan mahrum bo'ladi.

hanafiy mazhabida harom qilingan qotillik bu – qasddan o'ldirsa yoki qasddan o'ldirishga o'xshash yoxud xatodan o'ldirish va adashish kabilik. Molikiy fikricha: Merosdan man qiladigan qotillik qasddan dushmanlik bilan sodir qilingan qotillik bunda, kishining o'zi sodir qilsa ham yoki bir kishini yollash orqali bo'lsa ham bir xil hukmda.

Turli xil dinga mansublik.

Muvarris va voris qarama-qarshi dinda bo'lsa; musulmon kofirdan, kofir musulmondan meros olmaydi. Bir kofir ikkinchi kofirdan meros ololmaydi.

Merosxo'rlar ikki turga bo'linadi:

Meros olishlari farz bo'lganlar

qarindosh uruHchilik.

Merosxo'rlarning farz egalari 12 qismga bo'linadi. Ularning haqqi qur'on-da aniq qilib ko'rsatilgan.

Shundan 4 tasi erkaklar 8 tasi ayollardir.

Erkaklar: otasi; bobosi; er (xotinidan meros qolayotgan bo'lsa); onasining akasi.

Ayollardan: onasi (qur'onda 2 ta haq berilgan biri – ikkinchi – oladi); onasining onasi; qizi; o'Hlining qizi; ota-onasi bir singlisi; otasi bir singlisi; onasi bir singlisi; ayoli.

hech bir holda merosdan to'silmaydigan shaxslar: er; onasi bir akasi; onasi; bobosi; onasi bir singlisi; zavjasi (xotini).

Farz va asos bilan haq olish: otasi; bobosi; qizi; o'Hlining qizi; ota-onasi bir singlisi; otasi bir singlisi; suyakdosh bo'lish.

Suyakdoshlarning soni cheksiz, lekin ularning jinslari turli chegaralangan.

Suyakdosh 3 turga bo'linadi.

Vositasiz suyakdosh

Bobosi va o'Hli kiradi

Boshqasi bilan suyakdosh

O'Hil va qizlar kiradi

Singlisi kiradi

Singlisi marhumning qizi bo'lgan holda. Ammasi 6% ni oladi, qizi yarmini oladi.

Meros bobida rad tushunchasi farz egalaridan ortib qolgan molni yana o'zlariga qayta taqsim qilish qachonki asos bo'lmasa.

hanafiy mazhabi ulamolariga er va xotinga rad (qayta taqsim qilish) qilishga ruxsat etilmaydi. Boshqa mazhab ulamolar er va xotinga rad hukmini yuritadi.

Xotin eridan 2 xil haq oladi.

8% agar bolalari bo'lsa

4% agar bolalari bo'lmasa

qur'oni karimda merosga taalluqli oyatlar.

Nisa surasi 7-8-11-12, 176-oyatlar.

Anfal surasi 75-oyati

Axzaf surasi 6-oyati

Baqara surasi 180, 182-233-oyatlar.

“Sizlarga xotinlaringiz qoldirgan (merosdan agar ularning farzandlari bo'lmasa yarmi tegadi). Agar ularning farzandlari bo'lsa sizlarga ular qoldirgan (merosdan) to'rtidan bir (hissa) tegur. (Bu taqsimot) u (marhumlar) vasiyati yoki qarzi (adosi)dan keyin (ijro etilur). U (xotin)larga sizlar qoldirgan (meros)ni, agar farzandlaringiz bo'lmasa-to'rtidan biri (hissa) tegur. (Bu taqsimot) sizlar qilgan vasiyat yoki qarz (adosi)dan keyin (ijro etilur). Agar (vafot etgan) erkak yoki ayolning ota-onasi ham, farzandlari ham bo'lmay, (balki ona tomonidan) bitta ona yoki ukasi yoxud opa yoki singlisi qolgan bo'lsa, ularning ikkovidan har biriga oltidan bir (hissa) tegur. Agar (ular) bu (adad, ya'ni, bitta)dan ortiq bo'lsalar, ular merosni, undan biri (hissasida) teng sherik bo'lurlar (bu taqsimot merosxo'rga) zarar etkazilmasdan qilingan vasiyat yoki qarz (adosi)dan keyin Allohning buyruHiga binoan (ijro qilinur). Alloh bilimdon va hakimdur” (Niso 12).

### **Tayanch iboralar:**

Meros, kafil, muvarris, taqsimot, merosxo'r, radd

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Meros tushunchasi nimalardan iborat.
2. Kimlar merosxo'rlar hisoblanadi.
3. Meros qaysi holatlarda merosxo'rdan mahrum man etiladi.
4. Merosdan to'suvchi omillarni sanab o'ting.

### **O'zbek tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. «qur'oni karim» ma'nolarining tarjimasiva tafsiri. – T., 2004.

2. Ahmadjon Bobomurod. Faroiz ilmi. – T.: Movarounnahr, 2005.
3. Muxtasar. – T.: «Cho'lpon» nashriyoti, 1994.
4. Islomda ijara va muzoraba. – T.: Movarounnahr, 2005.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. hadis va hayot.
6. Nodir Nabijon o'Hli. halol tijorat sirlari. – T.: Movarounnahr.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Savdo, ziroat va vaqf”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Faroiz va va-siyatlar”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Zakot”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil

### **Arab tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mu'malatul bunuk va ahkamuhul shar'iyya. – qohira, 2001.
2. Vahba Zuxayliy. Al-Fiqhul islamiy va adillatuh.
3. Ingliz tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:
4. Wilson, R. (1985), Islamic Business: Theory and Practice, London: The Economist Publications.
5. Al-Suwailem, Sami (2000), "Towards an Objective Measure of Gharar in Exchange", Islamic Economic Studies, Vol. 7, Nos. 1 & 2, pp. 61-102.

### **Internet sahifalari:**

1. [www.islam.ru](http://www.islam.ru)
2. [www.IDB.com](http://www.IDB.com)
3. [www.islam.uz](http://www.islam.uz)
4. [www.islam.com](http://www.islam.com)

## **8-mavzu. MUDORABA**

Reja:

1. Mudoraba ta'rifi, mohiyati va shar'iy dalillari.
2. Mudoraba turlari va shartlari.
3. Foydani taqsimlash operatsiyasi usullari va asosiy xususiyatlari.

**1.** Mudoraba bu bir tomonning pul kapitali va ikkinchi tomonning esa o'z qobiliyati, mahorat va mehnatini ishlatib halol foyda topish hamda uni oldindan kelishilgan nisbatlarda taqsimlash maqsadida tuzilgan o'zaro hamkorlik (aqdi) shartnomasidir.

Kapital egasi – Rabbul mol (capital owner);

Boshqaruvchi (ish yurituvchi) – Mudorib (worker);

Kapital (sarmoya) – Ra'sul mol (capital).

Insonlar orasida aksariyat hollarda ma'lum bir mablag'ga ega bo'lib, lekin undan to'Hri foydalana olmaydigan yoki aksincha qo'lida hunari, mahorati va tajribasi bo'laturib, lekin mablag'ga ega bo'lmagan shaxslar uchrab turadi. Mana shu mudoraba usuli bunday hollarning oldini olish yoki bir-biriga muhtoj faoliyatlarning to'Hri kelishida ayni muddaodir.

Mudorabaning shar'iy dalillari:

Al-Baqara: 198

Al-Muzammil: 20

Islom tarixidan ma'lumki, PayHambarimiz (s.a.v.) payHambarlikdan oldin hadicha (r.a.) onamiz kapitali bilan mudorib sifatida Suriyaga borib, tijorat bilan shuHullanganlar va keyinchalik bu borada oyat ham nozil bo'lgan Sahobalar (r.a.) mudoraba bilan faoliyat olib borganlar va ularning hech biri bunga qarshi fikr bildirmaganlar.

Musulmonlar ommasining ham asrlar osha ittifoqi mavjud.

### **2. Mudoraba turlari va shartlari**

Mudorabaning ikki turi mavjud. Ular:

Mutloq mudoraba: hech qanday zamon, makon yoki sotish turlari bilan cheklanmasdan amalga oshiriladigan mudoraba turidir.

Muqayyat mudoraba: Ma'lum bir makon, zamon, tovar turi, aholi turi yoki sotish turi bilan cheklangan mudoraba.

Mudorabaning shartlari quyidagilardir:

Mudorabaga dalolat qiluvchi ijob va qabul so'zlarining ishlatilishi;

Faoliyatda ishtirok etuvchilarning ahli baloHatga etganva tijoratga ruxsat etilgan bo'lishi;

Kapital ayirboshlash qiymatiga ega bo'lishi, ya'ni oltin, kumush yoki qo'hoz pul ko'rinishida bo'lishi;

Kapitalning tomonlarga ma'lum bo'lishi;

Foydaning pay', yani 1H2, 1H3, 1H4 kabi qismlarga ajratila oladigan bo'lishi;

Kapitalning mudoribga etkazib berilgan bo'lishi;

Kapital egasi va mudoribning foydadagi ulushlari bitim tuzish paytida ma'lum qilingan bo'lishi;

Mudoribga tegishli bo'lgan ulushning foydadan berilishi.

**3. Bu usul mudoraba tamoyiliga tayanadi.** Ya'ni bunda foyda kapital egasi hamda ishbilarmon o'rtasida bo'linadi. Shuni eslatish kerakki, normal holatdagi ziyon esa kapitaldan chiqarib tashlanadi. Tamoyilning ko'rsatmasini qurayshiy o'zining sherikchilik haqidagi tushunchasi bilan izohlagan, lekin uning fikri bir qadar ikkilanarli bo'lib, qurayshiy kapital birinchi tomondan, ish ikkinchi tomondan ta'minlanib, foyda va ziyon ikki tomon o'rtasida bo'linishi kerak deb hisoblaydi. Aniqroq qilib aytganda, kapital ta'minoti va mehnat taqsimotining shakllanishidan qurayshiyning sherikchilik usulining mudorabaligi kelib chiqmoqda. Ayni vaqtda javobgarlik nuqtai nazaridan esa bu mushorakaga yaqindir. Uzayr quduridan quyidagi fikrlarni keltirgan holda asosiy e'tiborni quyidagiga qaratadi: «Mudoraba bu ikki tomondan biri kapitalining qo'shilishiga asoslangan shartnoma va bu esa o'z navbatida foyda olishda qatnashish demakdir. Bu odatda bir tomonning kapitali va ikkinchi tomonning mehnati orqali amalga oshadi. Bu shartsiz mudoraba amalga oshmaydi. Agarda foydaning hammasi kapital egasiga ketsa, bu oddiy investitsiyaga aylanadi. Ayni vaqtda foydaning hammasini mehnat sohibi olishiga kelishilgan bo'lsa, u holda bu shartnoma qarz hisoblanadi»<sup>7</sup>. Yuqorida aytib o'tilgan fikrda ta'kidlanganidek, to'Hridan-to'Hri investitsiyada kapital egasi oddiygina qilib butun qarorni o'zi qabul qiladi yoki menejer yollaydi. Agar investitsiya mushoraka ko'rinishini olsa, qaror qabul qilish jarayoni jamoaviy tarzda bo'ladi. Kapital egalari butun foydani talab qilishadi va ayni vaqtda butun ziyonni ham zimmalariga oladilar. qarz shartnomasida esa qarz beruvchi bergan pulini olishgagina haqlidir. Mudorabada esa kapital egasi ishchi bilan foydani taqsimlaydi, lekin barcha ziyonni o'z bo'yniga oladi. Shuningdek, Uzayr moliyaviy vositachilik tizimiga asoslangan PSP ning eskizini taklif qilgan va uni ikki tomonlama mudoraba deb atagan. Bu

printsipga binoan, resurs safarbar qilinadi va taqsimot PSP tamoyiliga asoslanadi.

PSP ning qayta ishlangan nazariy asoslari va moliyaviy vositachilikning mufassal tuzilishini Siddiqiy moliyalashtirishning rasmiy modeli sifatida taqdim etdi. Siddiqiyning bu boradagi hissasi shundaki, u Uzayrning ishini kengaytirdi hamda unga rasmiy tus berdi. Shunday bo'lsada, Siddiqiyning ishi ham ikkita farqli unsurdan iborat:

Birinchidan, «ikki tomonlama mudoraba» aksiomasi Siddiqiy fikricha, kredit tizimida asosiy iqtisodiy usulga aylanmoqda. Bu foydaga sheriklik asosida olingan moliyaviy resursni tadbirkorga resursning bir qismi yoki hammasini boshqa bir kishiga foydaga sheriklik asosida taqdim etish huquqini beradi. Shu o'rinda yuqoridagi usulga ruxsat berilganmi deb, savolni Siddiqiyning o'zi ko'taradi. U bu savolga zamonaviy tadqiqotlarga tayangan holda quyidagi fikrlarni aytadi: «Bu narsaning ya'ni yuridik bahslarning in'ikosi hisoblangan ikki tomonlama mudorabaning sof vositachilik usuliga aylanganligi aniq emas. Lekin biz uchun muhim narsa shuki, bu usulga ruxsat berilganligining dalili 1945-1975 yillar oraliqidagi ko'pchilik musulmon iqtisodchilar va faqihlarning bankning yangi modelini shu asosda taqdim etganliklari bilan izohlanadi»<sup>7</sup>.

Ikkinchidan, Siddiqiy mudoribning shaxsiy pulini mudoraba fondiga qo'shishini rasmiylashtirdi.

Yuqoridagi PSP moliyalashtirish usulidan uchta klassik mudorabaga doir xulosaga kelish mumkin:

Klassik mudorabaning birga-bir printsipi, ya'ni bir kapital egasi va bir tadbirkor hamkorligiga asoslanadi. Shuni eslatish joizki, zamonaviy musulmon iqtisodchilarining ta'kidlashlaricha, bir tadbirkorga (ya'ni bu erda bank) yuzma-yuz ravishda bir qancha kapital egalari (depozitorlar) ham bo'lishi mumkin.

Klassik mudorabada mudoribning (tadbirkor) shaxsiy mablag'i mudoraba fondiga kiritilmas edi. Davr o'tishi bilan zamonaviy iqtisodiyotda bu narsa boshqacha tus oldi. Binobarin, islom banklari depozitorlarning pullariga o'z hissalarini qo'shib foydalanishmoqda.

Mudoraba pulidan foydalanib, yana boshqa mudoraba shartnomasini tuzish klassik usulda qo'llanilmagan, lekin hozirgi paytda bu ham mudorabaning asosiy qoidalaridan biriga aylangan va innovatsiyalarni vujudga keltirdi: ya'ni PSP usulidan vositachilik maqsadida foydalanish mumkin. Islom moliyalashtirish tizimida bu yangilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Zero,

islom banklarining resurslarini jalb etish amaliyotidagi tajribalar, qolaversa, ko'pgina nazariy tadqiqotlarda yaqqol namoyon bo'lgan.

Sherikchilik faoliyati bu ikkala tomonning o'zaro kelishuvi asosidagi kapitalidir va mehnatda, boshqaruvda hamda nazoratda ishtirok etish sharti bilan amalga oshiriladigan shartnoma faoliyati hisoblanadi.

Foydani ulashish faoliyati esa bu bir tomonning kapital ta'minlashi va ikkinchi tomonning esa faoliyat samarasidagi foyda ulushi evaziga mehnat va boshqaruvni o'z zimmasiga olishi bilan boHliq ravishda tuzilgan shartnoma faoliyatidir.

Foydani ulashish operatsiyasining farqlovchi jihatlari:

Faqat bitta tomonning kapital ta'limoti:

Pul ko'rinishida bo'lsa, MUDORABA kelishuvi (ahdi);

Er bilan boHliq bo'lsa, Muzora (kelishuvi ahdi);

Mevali daraxtlarga taalluqli bo'lsa, Musoqot kelishuvi (ahdi).

Faqat bitta tomon kapital tikishni va boshqaruvni zimmasiga oladi.

Zarar holatida faqat kapital egasi, foydada esa ikkala tomon ham ulushga ega bo'ladi.

### **Tayanch iboralar:**

Rabbul mol, mudorib, ra'sul mol, mudoraba, mutlaq mudoraba, muqayyat mudoraba.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Mudoraba va uning mohiyatini tushuntiring.
2. Mudorabaning shar'iyeligiga misol keltiring.
3. Mudorabaning turlarini bayon etingq
4. Mudorabaning hozirgi hayotimizdagi tatbiqi qanday samara berishi mumkinq
5. RSR qayday usul va undan foydalanishq

### **O'zbek tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. «qur'oni karim» ma'nolarining tarjimasiva tafsiri. – T., 2004.
2. Islom ziyosi o'zbekim siymosida. – T., 2005.
3. Muxtasar. – T.: «Cho'lpon» nashriyoti, 1994.
4. Islomda ijara va muzoraba. – T.: Movarounnahr, 2005.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. hadis va hayot.
6. Nodir Nabijon o'Hli. halol tijorat sirlari. T.: Movarounnahr.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Savdo, ziroat va vaqf”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil



8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Faroiz va va-siyatlar”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
9. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “ Zakot”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil

### **Arab tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tafsirul jalolayn. – qohira, 1999.
2. Ali ibn Muhammad Sulton al-Ma'ruf bil qori. An-nihoya muxtasar ul-viqoya. – qozon, 1998.
3. Burhoniddin MarHiloniy. hidoya. – Mustafoid nashriyoti.
4. Shayx Ahmad Mullajiyvan ibn Abu Sa'id ibn Ubaydulloh. Nurul anvor. – Yusufiy nashriyoti, 1319.
5. Mahmud ibn Ahmad al-Ayniy. Al-binoya fi sharhil hidoya. Bayrut.
6. Muhammad Okif. At-tasxiluz-zaruriy li masailil quduriy. – Madina, 1994.
7. Abdurahmon ibn Muhammad. Al-fiqh ala mazohibil arba'. – qohira, 1997.
8. Mu'malatul bunuk va ahkamuhul shar'iyya. – qohira, 2001.
9. Vahba Zuxayliy. Al-Fiqhul islamiy va adillatuh.
10. Ingliz tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:
11. Al-Darir, Siddiq Muhammad al-Amin (1997), Al-Gharar in Contracts and its Effect on Contemporary Transactions, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.
12. Al-Suwailem, Sami (2000), "Towards an Objective Measure of Gharar in Exchange", Islamic Economic Studies, Vol. 7, Nos. 1 & 2, pp. 61-102.
13. El-Gamal, Mahmoud A. (2000), "An Economic Explication of the Prohibition of Riba in Classical Islamic Jurisprudence", in Proceedings of the Third Harvard University Forum on Islamic Finance, Harvard University: Center for Middle Eastern Studies, pp.29-40.

### **Internet sahifalari:**

1. [www.islam.ru](http://www.islam.ru)
2. [www.IDB.com](http://www.IDB.com)
3. [www.IERC.com](http://www.IERC.com)
4. [www.Islam.uz](http://www.Islam.uz)
5. [www.Islam.com](http://www.Islam.com)
6. [www.Halalinvestment.com](http://www.Halalinvestment.com)

7. [www.IslamicCapital.com](http://www.IslamicCapital.com)
8. [www.IslamicFinance.com](http://www.IslamicFinance.com)

## **9-mavzu: Islom iqtisodida muzora'a sherikchiligi**

### **Reja**

1. Muzora'aning mohiyati va shar'iy qonuniyligi.
2. Muzora'ani amalga oshirishdagi shartlari.
3. Muzora'ani amalga oshirish shakllari.
4. Islomning muzora'aga va ekin ekishga qilgan tashviqotlari.

1. Muzora'a sherikchiligi asrlar mobaynida insonlar o'rtasida amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda. Asosan islom dunyosining Nil daryosining atrofidagi mamlakatlarda, xususan, Sudan davlatida ko'p tadbqiq etilgan. Islom banklari va sarmoyadorlari shu erlarda muzora'a sherikchiligini qilishga tarHib qiladilar. Islom iqtisodiyotining er va insonni erda mehnat qilish ehtiyojiga e'tibori yuqori bo'lganligi uchun muzora'a sherikchiligini yuzaga keltirgan.

Jamiyatdagi ba'zi insonlar erga ega bo'lishlari, lekin unda mehnat qilib samarali foydalana olmasliklari mumkin. Shuning uchun Islom bu jamiyat ehtiyoji bo'lganligi va tomonlar ehtiyojlarini qondirish uchun qonuniy shaklda ruxsat etgan. Buning natijasida insonlar bir-birlariga nisbatan yordamlashadilar va o'rtada mehr-muhabbatning yuzaga kelishi sabab bo'ladi.

Muzora'a so'zining luHaviy ma'nosi. Muzora'a so'zi arab tilidagi "zara'a" fe'lidani olingan bo'lib, o'zbek tilidagi ma'nosi "ekin ekish, erni yumshatish" ma'nolarini beradi. Muzora'aning ma'nosi esa, chorakorlik va korandalikdir (rus tilida izdolgina). Muzora'aning Islom iqtisodiyotidagi ta'rifi:

Muzora'a – sherikchilik asosida ekin ekishga va etishtirishga hamda hosilni o'zaro taqsimlashga kelishishdir.

Islom huquqiga ko'ra, muzora'a – etishtirilgan mahsulotni bir qismini olish hisobiga o'z erini boshqa kishiga foydalanish uchun berishdir.

Muzora'aning shar'iy qonuniyligi.

A) PayHambarimiz (s.a.v.) hadisi shariflari bilan qonuniylashtirgan. PayHambarimiz (s.a.v.) haybar erini fath qilganlaridan so'ng, u erda yashovchi yahudiylar etishtirilgan mahsulotni bir qismini berish evaziga erni ishlatib turishlarini PayHambarimiz (s.a.v.)dan iltimos qiladilar. PayHambarimiz bunga rozi bo'lib o'zaro muzora'a shartnomasini tuzadilar.

B) PayHambarimiz Madina ansorlari bilan ham muzora'a sherikchiligini amalga oshirganlar.

Muzora'ani amalga oshirish tartib qoidalari “Mejallatul Ahkam al-‘adiyyah”ni 1431 moddasida batafsil yoritib berilgan.

**2.** Islom iqtisodiyoti va huquqiga ko’ra muzora'a munosabati qonuniy amalga oshirilishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi lozim.

Bu shartlar:

Erning ekin ekish va foydalanish uchun yaroqli bo’lishi;

Tomonlarning shartnoma tuzishga layoqatli bo’lishlari;

Sherikchilik muddati belgilanishi;

UruHning kimdan bo’lishi aniqligi;

Kim uruH bermasligini kelishish;

Er egasi, erda mehnat qilishda qatnashmaslik;

hosilni etishtirib, taqsimlanguncha sherik bo’lish.

Yuqoridagi shartlarni amalga oshirish bilan muzora'a munosabati qonuniy hisoblanadi.

**3. Muzora'aning qonuniy amalga oshishi uchun quyidagi shakl amal qilishi kerak.**

I - tomon

II - tomon

A)  $\perp$

B)

I - tomon

II – tomon

$\perp$

I - tomon

II – tomon

$\perp$

Tomonlar yuqorida ko’rsatilgan shaklda munosabatlarni amalga oshirsalar muzora'a shartnomasi to’g’ri bo’ladi.

Bundan tashqari shartnomada quyidagi holatlar topilsa shartnoma botil bo’ladi:

Tomonlarning biri qancha ulush olishini belgilasa.

Agar tomonlar uruH egasini uruHini olishini va keyin qolgan qismini tomonlar o’rtasida taqsimlashni shart qilib qo’ysalar.

Agar tomonlardan biri erning ma’lum bir joyidan (masalan, hosildor yoki suvli) hosil olishni shart qilib qo’ysa.

Tomonlar etishtirilgan hosilning birlari sonini ikkinchilari donini olishni shart qilib qo’ysalar.

Tomonlarning birining vafot etishi yoki aqldan ozishi.

Islomning muzora'aga va ekin ekishga qilgan tashviqotlari

Islom o'zaro adolat, halollik va insofililik asosida muzora'a sherikchiligini amalga oshirish tarafdoridir.

Alloh ta'olo qur'oni karimda shunday ta'kidlaydi:

“Sizlar ekayotgan ziroatlaringizni o'ylab ko'rdingizmi” (Voqea surasi, 63-oyat).

“Uni sizlar undirurmisizlar yoki biz undiruvchimizmiq!” (Voqea surasi, 64-oyat). “Alloh osmonlar va Erni yaratgan va osmondan suv (yomHir, qor) yoHdirib, u sababli sizlarga rizq bo'ladigan mevalarni chiqargan zotdir. U (O'z) amri bilan dengizda suzib yurishi uchun kemalarni sizlarga buyin sundirdi. Yana daryolarni ham sizlarga buyin sundirdi.” (Ibrohim surasi, 32-oyat).

Yuqoridagi oyati karimalardan ko'rinib turibdiki, Alloh ta'olo insonlarni dehqonchilik va muzora'a faoliyatini amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib qo'yganligini ta'kidlayapdi.

Bundan tashqari PayHambarimiz (s.a.v.) muzora'aning fazilati va oxiratda mukofoti juda yuqori ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

Masalan: “Musulmon kishini ekan daraxti va etishtirilgan mahsulotidan qushlar va insonlar bahra oladilar. Albatta, musulmon kishi ekin ekkani bilan juda katta savobga ega bo'ladilar”.

Demak, dehqonchilik va muzora'a bilan shuHullanish insonning dunyodagi va u oxiratdagi hayoti uchun juda foydalidir.

### **Tayanch iboralar:**

Rabbul mol, muzori', ra'sul mol, mudora'a, ziroatchilik

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Muzora'a nima va uning mohiyatini tushuntiring.
2. Muzora'aning shar'iyeligiga misol keltiring.
3. Muzora'aning turlarini bayon eting.
4. Muzora'aning hozirgi hayotimizdagi tatbiqi qanday samara berishi mumkin.
5. Muzora'a sherikchiligini qaysi holatlarda amalga oshirib bo'lmaydi.

### **O'zbek tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. «qur'oni karim» ma'nolarining tarjimasiva tafsiri. – T., 2004.
2. Muxtasar. – T.: «Cho'lpon» nashriyoti, 1994.
3. Islomda ijara va muzoraba. – T.: Movarounnahr, 2005.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. hadis va hayot.
5. Nodir Nabijon o'Hli. halol tijorat sirlari. – T.: Movarounnahr.

6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Savdo, ziroat va vaqf”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Faroiz va vasiyatlar”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Zakot”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil

### **Arab tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmon ibn Muhammad. Al-fiqh ala mazohibil arba'. – qohira, 1997.
2. Mu'malatul bunuk va ahkamuhul shar'iyya. – qohira, 2001.
3. Vahba Zuxayliy «Fiqhul islamiy va adillatuh»
4. Ingliz tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:
5. Al-Darir, Siddiq Muhammad al-Amin (1997), Al-Gharar in Contracts and its Effect on Contemporary Transactions, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.
6. Chapra, M. Umer (1985), Towards A Just Monetary System, Leicester, UK: The Islamic Foundation. (1992), Islam and the Economic Challenge, Leicester, UK: The Islamic Foundation.
7. Al-Jarhi and Munawar Iqbal (2001), Islamic Banking: Answers to Some Frequently Asked Questions, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.
8. Chapra, M. Umer and Tariqullah Khan (2000), Regulation and Supervision of Islamic Banks, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.

### **Internet sahifalari**

1. [www.islam.ru](http://www.islam.ru)
2. [www.IDB.com](http://www.IDB.com)
3. [www.COIER.com](http://www.COIER.com)
4. [www.KAAL.com](http://www.KAAL.com)
5. [www.IERC.com](http://www.IERC.com)
6. [www.Islam.uz](http://www.Islam.uz)
7. [www.Islam.com](http://www.Islam.com)

## **10-mavzu. Islom iqtisodiyotida mushoraka moliyaviy munosabati**

### **Reja:**

1. Mushoraka va uning turlari.
2. Shirkati aqd va uning mohiyati.
3. Shirkati aqdning turlari va hukmlari.

1. Mushoraka – bu sarmoya va foydada sherik bo'lgan kishilar o'rtasidagi kelishuv. Bunda foyda shartnomada kelishilgan ulushda taqsimlanadi, ziyon esa ikki tomonning kapitalga qo'shgan ulushiga proportsional (munosib) tarzda bo'linadi. Shuningdek,

Ulushlar (oddiy) aksioner jamiyatlari orqali mushoraka printsipli asosida tarqatilishi mumkin.

2. Bank institutlari resurslarni mudoraba asosida safarbar qilishlari mumkin.

Mushoraka ikki turga bo'linadi:

1. Molga egalik qilishdagi sherikchilik bo'lib, muayyan bir mulkka 2 yoki undan ortiq kishining sherik bo'lib egalik qilishidir. Bunda sheriklarning har qaysisi sherigining ulushida begona kishi hukmidadir.

2. Mushorakaning ikkinchi turi shirkati aqd, ya'ni biror ishni bajarishida sherik bo'lib birga bajarmoqlik. Shirkati aqd ijob va qabul bilan bo'ladi. Masalan ikki kishining bittasi: «men seni buHdoy sotib olish uchun sherik qildim», -deydi, ikkinchisi: «qabul qildim», - deb aytishi kabi. Biror ish qilishdagi sheriklikning sharti shuki, aytilgan ishning foydasidan bo'ladigan bir miqdor pulni sheriklaridan bittasining nomiga bog'lab qo'yilmagan. Masalan, ikkita kishi sherik bo'lsa, ulardan bittasiga 100 ming so'm beriladi deb belgilansa – bu sheriklik durust bo'ladi. Chunki foyda bo'lish bo'lmasligini oldindan bilib bo'lmaydi.

Ish qilishdagi sheriklik 4 turga bo'linadi.

Shirkati mufavazoh (to'liq majburiyat).

Shirkati inan (cheklangan huquq).

Shirkati abdan (mehnat, boshqaruv va tajriba).

Shirkati vujuh (kreditga loyqlik, korxona obro'yi).

### 3. Shirkati mufavazoh;

Bu topshirishdagi sheriklik, ya'ni sheriklar bir-birlariga mollarni tropshirishda monelik qilmaydilar. Shirkati mufavazohning sharti shuki, sherik bo'layotgan ikkita kishi molda, ozodlikda hamda dinda bir xil bo'lishi kerak. Agar bittasining tasarruf qilinishi kerak bo'lgan miqdordagi moli ikkinchisida bo'lmasa yoki kamroq bo'lsa, yoxud biri musulmon ikkinchisi kofir bo'lsa, sheriklik durust emas.

Shirkati mufavazohda vakillik va kafillik ham bor. Ya'ni, ikki sherik bir-biriga vakildir, bittasi qilgan ishning haqqi va hukmi ikkinchisiga ham tegishli hamda ular bir-birlariga kafildirlar. Masalan, bittasi bir kishining narsasini zo'rlab olsa yoki yo'qqa chiqarsa, buni to'lash ikkalasi uchun ham vojib bo'ladi. Agar sheriklarning bittasi biror narsa sotib olsa, ikkinchisiga ham tegishli bo'ladi. Lekin sotib oluvchining o'z oilasi uchun sotib olgan taomlari, kiyimlari bundan mustasnodir.

Sheriklikka tegishli ishlar uchun qarz to'lash lozim bo'lib qolsa, u qarz ikkala sherikning ham bo'yniga yuklatiladi.

Shirkati inan:

Shirkati inanda biror ish qilishda ishni sherigi yuritadi. Lekin ish yuritayotgan sherik shu ish oldida javobgar bo'ladi. Mushokaraning bu turi har qanday savdoda sherik bo'lish, sheriklikka molining ba'zisini yoki hammasini qo'shish bilan bo'ladi. Birining qo'shgan moli ikkinchisidan ortiqroq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga ikkalasining moli barobar bo'lib, foydasi biriga ko'p, biriga oz bo'lishi ham mumkin. Ammo moli kattaroq sherik xizmatini ham qilsa, foydani kam olmoHi durust emas, balki ko'proHini olmoHi lozim.

Shirkati inanning shirkati mufavazohdan yana bir farqi shundaki, sheriklarning moli alohida-alohida bo'lishi mumkin, ammo shirkati mufavazohda alohida bo'lmaydi.

Shirkati inanda sheriklarning bittasi narsa sotib olsa va o'z hisobidan shu narsa uchun haq qo'shsa, u holda to'lagan hissasini sherigidan undiradi. Sherikchilikda bittasining moli ziyon ko'rsa, o'z zarariga bo'ladi. Agar ikkala sherikning mollari bir-biriga aralashgandan keyin ziyon ko'rsa, zarar ham ikkala sherikning bo'ynida bo'ladi.

Sherikchilikdagi mol ikkala sherikning qo'lida omonatdir.

Shirkati abdan:



Biror ishni birga bajarmoqchi bo'lgan va shunga shartlashgan ikki kishi o'sha ishni qabul qilib olishda sherik bo'lishlaridir.

Sheriklar ishlagan haqlarini teng oladilar. Agar ishni teng qilsa ham bittasi ish haqqini ko'proq olishi mumkin. Faqat bu kelishishlarga bo'liq. Agar ishni bittasi bajarsa ham ish haqqi qanday kelishilgan bo'lsa shundayligicha qoladi. Bundan tashqari, shirkati abdanda sheriklarning bittasi ikkinchisidan ishni talab qilishi joiz, agar ishlamas mushoraka botil bo'ladi. Agar biror ishga shartlashilgandan keyin sheriklarning faqat bittasi ishni qabul qilib olsa, ishni bajarish ikkalasiga ham lozim bo'ladi.

**Shirkati vujud:**

Ikki kishi sherik bo'lib, nasiyaga mol olib sotishlari yoki dallollikdagi sheriklikdir. Shirkati vujudning ham sharti mol-mulkda va dinda bir xil bo'lishlikdir. Shirkati vujudda sheriklar sotib olingan narsani teng yarmidan bo'lib olishga kelishsalar foydasi ham bo'linadi. Ammo foydani moldagi ulushdan ko'proq qilish botildir.

Kishining o'z mulki bo'lmagan, ya'ni muboh narsalarni to'plashda mushoraka durust bo'lmaydi. Agar ikki sherikning bittasi vafot qilsa yoki aqldan ozsa, yohud murtad bo'lib dindan qaytsa, mushoraka botil bo'ladi.

Sheriklardan bittasi ikkinchisidan beruxsat uning molidan zakot berolmaydi. Agar zakot berishda bir-biriga ruxsat bergan bo'lsa va shu holatda bir-biridan bexabar ikkalasi ham zakot bersa, keyin zakot bergani sherigiga uning miqdorini to'laydi. Agar ikkalasi ham bir-biridan bexabar zakot ado qilsa, ikkalasi ham sherikning ulushini to'laydi.

**Mushorakaga oid oyat va hadislar**

“Albatta, Alloh sizlarga omonatlarni o'z ahliga erishtirishni va agar odamlar orasida hukm qilsangiz, adolat ila hukm qilishni amr qiladi. Alloh sizlarga qanday yaxshi va'da qilur, albatta Alloh eshitguvchi va ko'rguvchi zotdir” (Niso, 58-oyat).

**hadislar:**

1. Ishni sheriklik asosida qilinglar unda katta baraka bordir.
2. Foyda shart asosidadir.

**Tayanch iboralar:**

Mushoraka, shirkati mufavazoh, shirkati inan, shirkati abdan, shirkati vujud.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Mushorakaning mudorabadan farqi nima.
2. Mushoraka turlari haqida ma'lumot bering.

3. Mushorakaning hozirgi ko'rinishlari qanday.
4. Mushorakada ulushlar qanday taqsimlanadi.

### **O'zbek tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. «qur'oni karim» ma'nolarining tarjimasiva tafsiri. – T., 2004.
2. Muxtasar. – T.: «Cho'lpon» nashriyoti, 1994.
3. Islomda ijara va muzoraba. – T.: Movarounnahr, 2005.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. hadis va hayot.
5. Nodir Nabijon o'Hli. halol tijorat sirlari. – T.: Movarounnahr
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Savdo, ziroat va vaqt”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Faroiz va va-siyatlar”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Zakot”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil

### **Arab tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mahmud ibn Ahmad al-Ayniy. Al-binoya fi sharhil hidoya. Bayrut.
2. Abdurahmon ibn Muhammad. Al-fiqh ala mazohibil arba'. – qohira, 1997.
3. Mu'malatul bunuk va ahkamuhul shar'iyya. – qohira, 2001.
4. Vahba Zuxayliy. Al-Fiqhul islamiy va adillatuh.
5. Ingliz tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:
6. Al-Suwailem, Sami (2000), "Towards an Objective Measure of Gharar in Exchange", Islamic Economic Studies, Vol. 7, Nos. 1 & 2, pp. 61-102.
7. Chapra, M. Umer and Tariqullah Khan (2000), Regulation and Supervision ofIslamic Banks, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.
8. DeLorenzo, Y.T. (2000), Shari`ah Supervision of Islamic Mutual Funds,
9. Proceedings of the 4th Harvard Forum on Islamic Finance, USA
10. Obaidullah, M. (2001), Strategies in Islamic Funds Industry: An Exploratory Analysis (co-author: Zafar Sareshwala), Proceedings of the 5th Harvard Forum on Islamic Finance, USA
11. Yaquby, Nizam (2000), Participation and Trading in Equities of Companies Which Main Business is Primarily Lawful but Fraught

With Some Prohibited Transactions, Proceedings of the 4th Harvard Forum on Islamic Finance, USA.

**Internet sahifalari:**

1. [www.islam.ru](http://www.islam.ru)
2. [www.IDB.com](http://www.IDB.com)
3. [www.COIER.com](http://www.COIER.com)
4. [www.KAAL.com](http://www.KAAL.com)
5. [www.IERC.com](http://www.IERC.com)
6. [www.Islam.uz](http://www.Islam.uz)
7. [www.Islam.com](http://www.Islam.com)
8. [www.IslamicFinance.com](http://www.IslamicFinance.com)

## **11-mavzu. Islomda sug'urta masalalari**

### **Reja:**

1. Sug'urtaning mohiyati va jamiyatdagi o'rni.
2. Islomda sug'urtani joiz deb hisoblagan ulamolarning dalillari.
3. Islomda sug'urta faoliyatini nojoiz deb hisoblagan ulamolar fikrlari.

**1.** Ma'lumki, hozirgi kunga kelib rivojlangan mamlakatlar xo'jaligida shakllantirilayotgan milliy daromadning katta qismi xizmat ko'rsatish sohasining hissasiga to'Hri kelmoqda. Xususan ularning jumlasiga sug'urta xizmatlari ham kiradi. hozirgi kunda moliya bozorlarida sug'urta kompaniyalari o'zlarining mablag'lari bilan ishtirok etsa, jahon tovar va xizmatlar bozorida o'z sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bilan faoliyat olib bormoqda. Sug'urta bozori – bu muhim ijtimoiy, iqtisodiy omil bo'lib, tovarlar savdosi, risk, jon va mulklarni sug'urtaviy himoyasining talab va taklifi shaklida namoyon bo'ladigan iqtisodiy munosabatdir. Sug'urta bozorining asosiy xususiyati shundan iboratki, kutilmagan ko'ngilsiz hodisa ro'y berganda ishlab chiqaruvchini yoki tijoratchini qo'llab-quvvatlashdir. Bundan tashqari, sug'urta bozori uning iste'molchilariga moliyaviy munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi fond vazifasini ham bajarishi mumkin.

Sug'urta ishi islom dinining ilk davrlarida mavjud bo'lmaganligi tufayli ko'pchilik olimlar tomonidan katta bahs-munozaraga sabab bo'lmoqda. Ammo jamiyatning tinimsiz ravishda rivojlanishi va undagi kishilarning ehtiyojlari va faoliyatlarining o'zgarib borishi natijasida ularning ehtiyojlarini qondirish uchun sug'urta faoliyati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar fuqarolari hayotining ajralmas qismiga aylanib qoldi. Islom dini asosiy din hisoblangan mamlakatlarda sug'urta faoliyatidan foydalanish bir muncha oqsamoqda. Bunga sug'urta faoliyati haqida na qur'onda, na hadisi nabaviyyada aniq bir fatvoning mavjud emasligi. Bu xususda keyingi rejalarda fikr yuritiladi.

**2.** Islom ulamolari sug'urta faoliyati haqida ikki xil qarashdalar. Ayrim ulamolar uni joiz deb hisoblasalar, ayrimlari nojoiz deb e'tirof etadilar. quyida har ikkala qarashning va dalillarni o'rganib chiqishga harakat qilamiz.

Ba'zi huquqshunoslarning fikricha, sug'urta – bu biror tadbirkor yoki shaxs ma'lum falokat yoki tushkunlikka tushgan holatda muammo faqat uning bo'ynida emas, balki shunday o'Hir paytda sug'urta kompaniyasi unga muammolarini engillashtirish va sinishining oldini olishga katta yordam beradigan faoliyatdir. Bundan tashqari, islom dinining asosiy maqsadlari-

dan biri, hayotning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida jamiyat a'zolariga o'zaro yordam va kafolat orqali yordam berish asosiga qurilgan. Shunga binoan sug'urta dinning shu maqsadlariga mos kelishi fikrimiz izohi bo'la oladi.

hozirda sug'urta atamasi arab tilida «Ta'min» yoki «Takaful» atamaları bilan yuritilmoqda.

Yuqoridagi aytib o'tganimizdek, sug'urta faoliyati keyinchalik paydo bo'lganligi tufayli ilgari muomalada bo'lgan va Islomning zabardas ulamolari tomonidan qabul qilingan ba'zi shartnomalarga qiyos qilib, ijtimod qilingan. Shu qiyosiy dalillardan bir qanchasini keltirib o'tamiz:

Muvolat shartnomasi;

hanafiy mazhabiga ko'ra yo'l xavf-xatarining to'lov-kafolat shartnomasi;

Molikiy mazhabiga ko'ra qarzdorlik va qarzdorlik va'dasi;

Bugungi kunda barcha davlatlarda keng qo'llanilayotgan va zarur deb qabul qilingan maosh va ijtimoiy himoya (nafaqa) tizimi.

Ushbu aytib o'tilgan dalillarning ba'zilarini izohlab chiqsak:

Professor Ahmad Taho as-Sanusiy Ta'min Ad-Dorimiyning rivoyati bilan sobit bo'lgan, islomda muvolot shartnomasiga qiyos qilib sug'urtani halol deb hisoblagan. Muvolat shartnomasi bu – nasabi noma'lum bir shaxsning nasabi ma'lum bir shaxsga «sen mening valiyimsan, biror bir jinoyat yoki ayb qilib qo'ysam, zararini to'laysan, agar vafot etsam, mening vorisim bo'lasan» deyishidir. Bu shartnoma ba'zi bir shaxslarning boshqa davlatga borib ishlaganlarida qonunlarni yoki u erdagi shart-sharoitlarni bilmasdan biror bir ayb qilgan hollarida vujudga kelgan. Bu shartnomaning hozirgi sug'urta ishiga o'xshash tomoni shundan iboratki, boshqa bir shaxs tomonidan qilingan biror bir ayb yoki biror bir zarar boshqa bir shaxs tomonidan to'lab berilishidir. Bu shartnomani buyuk sahobai ikromlar haz-rati Umar, ibn Mas'ud, ibn Abbos va ibn Umarlar qabul qilganlar. Abu hanifa ham shogirdlari bilan bu shartnomaning ba'zi shartlari bilan qabul qilganlar. Imom Saraxsiy o'zining «Al -Mabsut» asarida ham bu hukmni izohlagan.

Yo'l xavf-xatarlarini kafolatlash shartnomasi – bunda biror bir shaxs ikkinchisiga «sen menga ma'lum mablag' to'lasang mana bu yo'ldan bor-ishda yuklaringni kafolatlayman, agar biror zarar yoki falokat sodir bo'lsa, zararini to'layman» deyishidir. Bu shartnoma hozirgi sug'urtaga juda mos keladi, sug'urtada ham ma'lum to'lov evaziga biror mulk kafolatlanadi.

hozirgi nafaqa tizimida ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z daromadlarini ma'lum qismini to'lab borib, keyinchalik nafaqaga chiqqanlarida nafaqa fondiga bergan mablag'laridan ulushlarini olib boradilar. Sug'urtada ham, xususan hayot sug'urtasida, sug'urtalangan shaxs sug'urta kompaniyasiga ma'lum pul to'lab boradi va kelishilgan muddat tugaganida yoki vafot etganida kompaniya pulni o'ziga yoki vorislariga to'laydi.

Sug'urtani harom deb fatvo bergan olimlarning fikricha, birinchidan, sug'urta katta bahs (shubhaga)ga sabab bo'lmoqda, ikkinchidan esa bu faoliyat qimorning bir turidir, qimorda esa o'yinni olib borgan tomon foydani oladi. Sug'urtalangan shaxs olgan foyda esa foizdir, ya'ni ribo.

Bu erda huquqshunoslar va din ulomolarining qarama-qarshi fikrlari asosini aniqlashtirsak, masala ravshanlashadi, ya'ni din qimorni va bunga oid faoliyatni ham taqiqlaydi.

Shu o'rinda haqli savol tuHiladi, ya'ni islom dinining ilk davrlarida olib borilgan shartnomalardan boshqa turdagi shartnomalar ham mumkinmi yoki yo'qmiq Insonlar jamiyat rivojlangan sari yangi turdagi shartnomalarni ehtiyoj qilishlari joizm, yo'qmiq

PayHambarimiz (s.a.v.) «Allohning kitobida bo'lmagan har bir shart bo'tildir» ma'nosidagi hadislari bor. Avvalambor yuqoridagi hadisda kelgan «Kitob» so'zi qur'oni karim emas, Allohning farzi ma'nosidadir. Ya'ni, Niso surasining 133-oyatida «namoz mo'minlarga vaqtlangan kitobdir» oyatidagi «Kitob» so'zi ham farz ma'nosida keltirilgan.

Bundan tashqari, Islom insonlarni dinning ilk davrlaridagi faoliyat doirasida chegaralab qo'ymagan, ular o'z hayotlari mobaynida yangi faoliyat turlari kashf qilishlari mumkin, ammo bu faoliyatlar islomning asl qoidalariga zid kelmasligi kerak. Yangi shartnoma sifatida muomalaga kirgan hijriy V asrda keng qo'llanila boshlagan Bay'-ul-vafo shartnomasi hozirgi sug'urta faoliyatiga juda mos keladi. Islom huquqiga binoan, avvalgi shartnomalarga o'xshash kelishuv turlarini qabul qilishgan yoki avvalgilariga o'xshamagan bo'lsada, islomning asl qoidalari doirasidan chekinmagan holda bo'ladigan bo'lsa, joiz deb qabul qilinishiga muvofiq «bay'-ul-vafo»ni hanafiy mazhabida muboh ekanligini prof. Abu Zahro ta'kidlab o'tganlar. Chunki, bu shartnoma avvalgi hech bir muomila turiga o'xshamaganligi sababli va o'z davrining eng faol iqtisodiy shartnomasi sifatida ahli ray uni qabul qilganlar.

Sug'urtaning ikki turi mavjud:

O'zaro almashishga asoslangan sug'urta

Bugungi kundagi o'zaro to'lov asosidagi sug'urta

1. O'zaro almashishga asoslangan sug'urta har qanday xavf tuHilishidan qat'i nazar shar'an joizdir. Chunki, a'zoldan biri biror bir xavfga duchor bo'lgan holatda butun jamoa vaziyatdan chiqib ketishi va o'zini tiklab olishi uchun o'zaro yordam ko'rsatish joizdir. Bu faoliyat o'zaro yordamlashish birlashmasi ko'rinishidagi bir tashkilotdir. qur'oni karimda zikr etilgan «yaxshilik uchun yordamlashish» printsiPGA asoslangan faoliyatdir.

2. Sug'urtaning ikkinchi turi, ya'ni o'zaro to'lov asosidagi sug'urtaga keladigan bo'lsak, sug'urtani haromligini ta'kidlaydigan barcha shubhalar shu turida jamlangan. Ammo shubhalarining asosi bo'lmasa, bu turdagi sug'urtani muboh ekanligini aytishimiz mumkin. Chunki, fiqhiy qoidaga muvofiq «harom bo'lmagan narsa mubohdir». Bundan tashqari «az-zaruru tubihul mahdurot» degan hadis borki, zarur bo'lganda va boshqa imkon qolmaganda ba'zi harom narsalardan foydalanish joiz bo'ladi.

Bundan tashqari, birinchi turdagi sug'urta faoliyatini islomda joiz deb qabul qilingan ekan, ikkinchi turi ham joiz bo'lishi kerak, deb izohlaydi prof. Abu Zahro, chunki ma'lum tashkilot tuzilib, unda barcha a'zolar, ulardan birortasi biror falokatga uchraganda uning zararini engillashtirib o'zaro yordamlashish uchun mablag' to'plab borishsada va bu a'zolar soni shunchalik ko'p bo'lib ketganda ular bir-birini tanimasliklari tabiiy. Shunda tashkilot falokatga duchor bo'lgan a'zoga yordam berishga haqli bo'ladi. Agar shartnomada kelishilganidek hech bir a'zo falokatga uchramasa, to'plangan kapital kompaniyani rivojlantirishga sarflanadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Islom insonlarni ilk davridagi qonunlar doirasida chegaralab qo'ymagan, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, istalganicha faoliyat olib borishlari mumkin, ammo bu faoliyatlar Islomning asl qonunlariga zid kelmasligi shart.

Sug'urtani harom degan olimlarning fikricha, bu faoliyat bir nechta omillarga muvofiq joiz emas, ya'ni:

sug'urta – bu qimorning bir turidir, qimorda o'yinni olib borgan shaxs foydaga ega bo'ladi. qur'oni karimda shayton qimor orqali insonlar o'rtasiga adovat soladi va ularni Allohni tanimasdan va unga ibodat qilishdan to'sadi (Al-Moida, 5-91) ma'nosida oyat bor. Ammo bu faraz biroz sayoz, chunki sug'urta qimor kabi boshqalarga yomonlik emas, balki ishlarida engillik keltiradi, o'z mijozlariga ishonch va tinchlik baxsh etadi. Bundan tashqari qimorda ikki tomondan biri foydaga erishib, ikkinchisi zarar ko'radi, am-

mo sug'urtada sug'urtalovchi o'z foydasini oladi agar sug'urtalangan shaxsda falokat sodir bo'lmasa, va aksincha biron bir falokat sodir bo'lsa esa uning to'lovini to'laydi. Bu erda har ikki tomon ham manfaatdor bo'ladi.

Jon sug'urtasi joiz emas, chunki kishining hayotini hech kim kafolatlay olmaydi va vafotidan keyingi merosini ham qur'oni karimda qay tarzda taqsimlanishi ko'rsatib qo'yilgan. Bunga raddiya sifatida javob shuki, jon sug'urtasidan maqsad kishining hayotini kafolatlash emas, balki vafot etgan shaxsning vorislariga imkon boricha ko'proq meros qoldirish, ya'ni buni «har bir ish niyatga qarab baholanadi» ma'nosidagi hadis bilan izohlashimiz mumkin.

Sug'urtada majhul savdo bor, ya'ni kelishilgan hodisa sodir bo'lishi va bo'lmasligi hamda foyda kimga ko'proq tegishi noma'lum. PayHambarimiz (SAV) bu turdagi savdoni man qilganlar. Bu fikrning ham haqiqiatdan yiroqligi shundaki, mavhum savdoda kim foyda olishi noma'lum, ammo sug'urtada har ikkala tomon ham manfaatdor bo'ladi. Ya'ni bir tomonga ishonch va riskning kamayishi, ikkinchi tomonga esa daromad. Noma'lum savdo esa, hali tuHilmagan hayvon bolasini sotish, dengizdagi baliqlarni va osmonda uchib yurgan qushlarni sotishni nazarda tutgan.

hayot sug'urtasida mavhumlik bor, ya'ni sug'urtalangan shaxs vafot etgan-ga qadar qancha miqdorda mablag' to'lashi noma'lum va oladigan sum-masi ma'lum.

### **Tayanch iboralar:**

Sug'urta, sug'urta bozori, sug'urta ishi, o'zaro almashishga asoslangan sug'urta, o'zaro to'lov asosidagi sug'urta, muvolot shartnomasi, kafolat shartnomasi, qarzdorlik va'dasi, islom nafaqa tizimi, bay'ul vafo.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sug'urtaning mohiyati nimada.
2. Nima uchun islom olamida sug'urtaga bo'lgan qarashlar farqlangan.
3. Sug'urtaning mubohligiga keltirilgan dalillarni ayting.
4. Sug'urtani nojoiz deb hisoblagan olimlarning dalillarini sanang.
5. Islomda sug'urta shartnomasiga o'xshash shartnomalarni ko'rsating.
6. Sug'urtaning qaysi turi islomda joiz etilgan.
7. Sug'urtaning haromligi haqidagi dalillarga raddiyalarni ko'rsating.

### **O'zbek tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**



1. Shayx Abdulaziz Mansur. «qur'oni karim» ma'nolarining tarjimasiva tafsiri. – T., 2004.
2. Muxtasar. – T.: «Cho'lpon» nashriyoti, 1994.
3. Islomda ijara va muzoraba. – T.: Movarounnahr, 2005.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. hadis va hayot.
5. Nodir Nabijon o'Hli. halol tijorat sirlari. – T.: Movarounnahr
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Savdo, ziroat va vaqf”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Faroiz va vasiyatlar”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “ Zakot”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2008 yil

### **Arab tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmon ibn Muhammad. Al-fiqh ala mazohibil arba'. – qohira, 1997.
2. Mu'malatul bunuk va ahkamuhul shar'iyya. – qohira, 2001.
3. Vahba Zuxayliy. Al-Fiqhul islamiy va adillatuh.
4. Ingliz tilida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:
5. Al-Darir, Siddiq Muhammad al-Amin (1997), Al-Gharar in Contracts and its Effect on Contemporary Transactions, Jeddah: Islamic Research and Training Institute, Islamic Development Bank.
6. Chapra, M. Umer (1985), Towards A Just Monetary System, Leicester, UK: The Islamic Foundation. (1992), Islam and the Economic Challenge, Leicester, UK: The Islamic Foundation.
7. Saleh, Nabil (1992), Unlawful Gains and Legitimate Profits in Islamic Law, UK:Graham & Trotman, pp. 63-64.
8. Shefrin, H. and M. Statman (1998), Ethics, Fairness, Efficiency, and Financial Markets, Virginia: The Research Foundation of Institute of Chartered Financial Analysts.
9. Wilson, R. (1985), Islamic Business: Theory and Practice, London: The Economist Publications.
10. Articles
11. Al-Suwailem, Sami (2000), "Towards an Objective Measure of Gharar in Exchange", Islamic Economic Studies, Vol. 7, Nos. 1 & 2, pp. 61-102.

12. El-Gamal, Mahmoud A. (2000), "An Economic Explication of the Prohibition of Riba in Classical Islamic Jurisprudence", in Proceedings of the Third Harvard University Forum on Islamic Finance, Harvard University: Center for Middle Eastern Studies, pp.29-40.

## **MUNDARIJA**

KIRISH 3

1-mavzu: Islom iqtisodiyotida qarz masalalari

2-mavzu. Islom iqtisodiyotida zakot masalalari

3-mavzu. Islom iqtisodiyotida ijara masalalari

4-mavzu: Islomda savdo-sotiq masalalari

5-mavzu. Islom iqtisodiyotida moliyaviy tizim

6-mavzu. Islom iqtisodiyotida kafolat masalasi

7-mavzu. Meros masalasi va uning xususiyatlari

8-mavzu. Mudoraba

9-mavzu. Islom iqtisodida muzora'a sherikchiligi

10-mavzu. Islom iqtisodiyotida mushoraka moliyaviy munosabati

11-mavzu. Islomda sug'urta masalalari